

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**NOORGANIK, FIZIK VA KOLLOID KIMYO KAFEDRASI**

## **Elektrokimyo**


Farmatsiya va sanoat farmatsiyasi fakultetlari II kurs talabalari uchun o`quv-uslubiy qo'llanma

**Toshkent 2019**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOGLIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI  
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**

O'z R SSV Fan va ta'lif  
bosh boshqarmasi boshlig'i  
O'S. Ismailov  
2019 y "13" fevral  
№ 2 bayonnomma



**"KELISHILDI"**

O'z R SSVning Tibbiy  
ta'lifni rivojlantirish  
markazi direktori  
N.R. Yangieva  
2019 y "13" fevral  
№ 2 bayonnomma



**ELEKTROKIMYO**

**Farmatsiya va sanoat farmatsiyasi fakultetlari  
II kurs talabalari uchun uslubiy qo'llanma**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING  
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH  
MARKAZI TOMONIDAN  
RO'YHAFOGA OLINDI

46  
1 fevral 2019 yil

**Toshkent – 2019**

**Tuzuvchilar:**

- S.N. Aminov - Noorganik, fizik va kolloid kimyo kafedrasи professori, k.f.d.,
- M.M. Qurbanova - Anorganik, analitik, fizik va kolloid kimyo kafedrasи dotsenti, f.f.n.,
- M.M. Raxmatullaeva - Noorganik, fizik va kolloid kimyo kafedrasи dotsenti, f.f.d.,
- N.T. Zokirova - Noorganik, fizik va kolloid kimyo kafedrasи Dotsent v/b, k.f.n.

**Taqrizchilar:**

Ubaydullaev Q.A. - Toshkent farmatsevtika instituti farmatsevtik kimyo kafedrasи professori, k.f.n.

Masharipov S.M. – Toshkent tibbiyot akademiyasi tibbiy va biologik kimyo kafedrasи professori, k.f.d.

Toshkent farmatsevtika institutining markaziy o`quv uslubiy kengashining  
2019 yil 23-sonli majlisida muhokama qilindi va  
chop etishga tavsiya etildi.

Uslubiy qo`llanma Toshkent farmatsevtika instituti Ilmiy kengashida ko`rib  
chiqildi va chop etishga tavsiya etildi ( 31-sonli 2019 yil, 06-sonli  
bayonнома).

Ilmiy kotib farm.f.n. dotsent



V.R. Xaydarov

## **I- BOLIM. ELEKTROLIT ERITMALARINING ELEKTR O`TKAZUVCHANLIGI MAVZUNING TEXNOLOGIK KARTASI**

Mavzu:	<b>Elektrolit eritmalarining elektr o`tkazuvchanligi</b>
Mavzuning ahamiyati	Elektrolit eritmalarining elektr o`tkazuvchanligini tajribada aniqlash; kislota, asos, tuz eritmalarini kondyktometrik titplash asosida eritma kontsentratsiyasini aniqlash, kuchsiz elektrolitlar dissotsialanish darjasini va ionlanish konstantasini, suv ion kontsentratsiyalarining ko`paytmasini aniqlash, erituvchida yomon eriydigan tuzlarning eruvchanlik kontsentratsiyasini konduktometrik usulda aniqlashlar – kimyo va farmatsiyada muhim ahamiyatga egadip.
Maqsad va vazifalar	Eritmalar elektrokimyosi bo'yicha sifat va miqdoriy tekshirishlarni o`tkazishda talabalarning bilim va amaliy mahoratlarini rivojlantirish. Ilmiy jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, elektropolitlarning fizik va kimyoviy xossalari kattaliklarini aniqlash. Ishdan ko`zda tutilgan tarbiyaviy maqsad: mavzuda keltirilgan materiallar asosida talabalarning ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashlarini rivojlantirish.
Mashg`ulotni tashkil etish	Ushbu mavzu 2 ta amaliy mashg`ulotga mo`ljallangan: Xar bir mashg`ulot uchun vaqt taqsimoti: berilgan mavzuni o`zlashtirilganligini aniqlash - 40 minut tajribani bajarish – 30 – 40 minut olingan natijalarni hisoblash – 20-30 minut ish joyini tartibga keltirish- 10- 20 minut
O`quv jarayoning mazmuni	Talabalarni elektrolit eritmalarining elektr o`tkazuvchanligini tajribada aniqlaydi. Konduktometrik usulda asosida eritma kontsentratsiyasini aniqlaydi.
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<u>Uslub:</u> Og`zaki savol-javob, suhabat-munozara “Bumerang” texnologiyasi, SWOT – analiz, tahlil uslubi, aqliy xujum. <u>Shakli:</u> Amaliy mashg`ulot, kichik guruhlarda va jamoada ishslash. <u>Vosita:</u> Tarqatma materiallar, ko`rgazmali vositalar-grafiklar, amaliy mashg`ulot olib boriladigan laboratoriyyada amaliy mashg`ulotlar maxsus jihozlangan o`quv laboratoriylarida olib boriladi. Buning uchun quyidagilar zarur: reoxord, o`zgaruvchan tok generatori, kichik qarshilikka ega bo`lgan telefon (naushnik), qarshiliklar magazini, platinalangan platina elektrodlari tushirilgan shisha idishcha, termostat, elektr simlari, byuretka,

	0,02n. kaliy xlorid eritmasi, NaOH, KCl, CH <sub>3</sub> COOH larining eritmalari. BaSO <sub>4</sub> ning to`yingan eritmasi, distillangan suv. <u>Baholash:</u> Rag`batlantirish, o`z-o`zini baholash.
Kutiladigan natijalar	<p><u>O`qituvchi:</u> elektrolit eritmalapining elektr o`tkazuvchanligini va konduktometrik usulda asosida eritma kontsentratsiyasini aniqlashni multimediya orqali tushuntiradi. Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o`zlashtirilishiga erishadi. Talabalar faolligini oshiradi, ularni mustaqil ishlashga o`rgatadi. Bir vaqtning o`zida ko`pchilik talabalarni baholaydi.</p> <p><u>Talabalar:</u> Yangi bilimlarni egallaydi; yakka holda va guruh bo`lib ishlashni o`rganadilar. Nutq rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O`z-o`zini nazorat qilishni o`rganadilar; qisqa vaqtda ko`p ma'lumotga ega bo`ladilar.</p>

### ***SWOT – analiz, tahlil uslubi.***

SWOT uslubi – interaktiv texnologiya bo`lib, talabalarni biron bir mavzuni chuqur o`rganishlariga yordam berib, hamkorlikda, jamoa bo`lib ishlashni o`rgatadi. U talabalarda fikriy bog`liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o`z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur uslub talabalarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini holis baholash, o`rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Ayni paytda, turli g`oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog`liqliklarni aniqlashga imkon beradi.

Talabalar kichik guruhlarga bo`linadi. Oldindan tayyorlangan tarqatma materiallar tarqatiladi. Har bir guruh o`z fikrlarini yozib bo`lganlaridan so`ng, ular orasida savol-javob ketadi. Trening uchun 5 minut vaqt ajratiladi.

<b>SWOT – analiz, tahlil uslubi</b>	
<b>Solishtirma elektr o`tkazuvchanlik</b>	<b>Ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik</b>

### ***Bumerang (aks-sado) treningi.***

Mazkur pedagogik texnologiya bir mashg`ulot davomida o`quv materialini chuqur va yaxlit holatda o`rganish, ijodiy tushunib yetishga yo`naltirilgan. Bu texnologiya yordamida muammoli, vaziyatli va munozarali mavzularni o`rganish mumkin. “Bumerang” deyilishi – ning sababi bir mashg`ulot davomida har bir ishtirokchi turli topshiriqlarni bajarishi, talaba navbat bilan o`quvchi yoki o`qituvchi rolini bajarishi mumkin.

Ushbu darsda talabalar kichik guruhlarga bo`linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Har bir guruh talabasi o`z fikrini bayon qiladi. O`z fikrini himoya qilayotgan guruhgaga boshqa guruhlar talabalari savol beradilar va guruhlar orasida “Bumerang” tarzida savol - javob ketadi. Bu usulda guruhlarga quyidagi vazifalar beriladi:

### **1 – guruh**

1. Elektrolit eritmalarida elektr o`tkazuvchanlik qanday yuzaga keladi va qanday faktorlarga bog`liq bo`ladi?

2. Solishtirma va ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik. Matematik ifodalari va o`lchov birliklari?

3. Idishning sig`im qarshiligi (idish doimiyligi) va uni aniqlash?

### **2 – guruh**

1. Ionlarning mustaqil harakatlanish qonuni (Kol'raysh qonuni) va uning matematik ifodasi?

2. Konduktometrik usulda kuchsiz elektrolitlar dissotsialanish darajasi va ionlanish konstantasini aniqlash?

3. Erituvchida kam (yomon) eriydigan tuzlarning eruvchanlik kontsentratsiyasini konduktometrik usulda aniqlash ?

### **3 – guruh**

1. Kuchsiz kislotani kuchli ishqor bilan, kuchli kislotani kuchli ishqor bilan, kuchli va kuchsiz kislotada aralashmalarini kuchli ishqop yordamida konduktometrik titrlash grafiklarining taxlili.

2. Elektr o`tkazuvchanlikni aniqlash asosida olib boriladigan fizik-kimyoviy analiz usullarining mohiyati?

3. 1 va 2 xil o`tkazgichlar va ularni o`zaro qanday farqlash mumkin?

### **4 – guruh**

1. Elektr o`tkazuvchanlik deb nimaga aytildi va u qanday o`lchov birliklarda o`lchanadi?

2. 1 va 2 xil o`tkazgichlarning elektr o`tkazuvchanligini aniqlash uslubida qanday farq mavjud?

3. Elektrolit eritmalarining elektr o`tkazuvchanligi qanday faktorlarga bog`liq bo`ladi?

### **5 – guruh**

1. Elektr o`tkazuvchanlik. O`tkazgich turlari.

2. Solishtirma elektr o`tkazuvchanlik va unga tasir etuvchi faktorlar.

3. Ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik va unga tasir etuvchi faktorlar.

### **6 – guruh**

1. Eritmalarning elektr o`tkazuvchanligini o`lchash. Kolraush sxemasi.

2. Ionlarning mustaqil harakatlanish qonuni.


3. Elektr o`tkazuvchanlikning sanoatdagagi ahaliyati.

## Trening uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Bumerang texnologiyasi tanqidiy fikrlashga, talaba ongini mantiqiy shakllantirishga imkon beradi, talabalarni jamoa bilan ishlashga o`rgatadi, xushfe'llik, o`zgalar fikriga hurmat, faollik, o`ziga xolis baho berish kabi ko`nikmalarni beradi.

### Asosiy kattaliklar va ularning ifodalanishi va birliklari

Elektrolit eritmalarining elektr o`tkazuvchanligini o`lchash, tomonlari 1 smdan bo`lgan kvadrat kesmali idishda (1-rasm) olib boriladi. Idish yon devorining ikkitasi platinadan va ikkitasi shishadan yasalgan bo`ladi. Idishga ma'lum xajmda elektrolit quyiladi.



**1-rasm. Elektrolit eritmalarining elektr o`tkazuvchanligini o`lchash uchun ishlataladigan idish tuzilishi.**

Ma'lumki, o`tkazgichning qarshiligi  $/R/$  o`tkazgich uzunligiga  $/l/$  to`g`ri proportional, uning ko`ndalang kesma yuzasiga teskari proportionaldir.

$$R = \rho \frac{l}{S}; \text{ om} \quad (1)$$

bu erda  $\rho$  - solishtirma qarshilik bo`lib, uzunligi 1 sm, ko`ndalang kesimi  $1 \text{ sm}^2$  ga teng bo`lgan o`tkazgich qarshiligidir.

Elektr o`tkazuvchanlik bu moddalarning elektr tokini o`tkazish xususiyatidir. O`tkazgichning elektr o`tkazuvchanligi  $/\chi_o/$  uning qarshiligiga teskari proportionaldir.

$$\chi_o = \frac{1}{R}; \text{ Om}^{-1} \quad (2)$$

Solishtirma qarshilikka  $/\rho/$  teskari bo`lgan kattalik solishtirma elektr o`tkazuvchanlik  $/\chi/$  deyiladi.  $/\chi - \text{kappa}/$ .

$$\chi = \frac{1}{\rho}; \text{ OM}^{-1} \cdot \text{CM}^{-1} \quad (3)$$

$/1/$  va  $/3/$  tengliklardan quyidagi tenglikni keltirib chiqarish mumkin:

$$\chi = \frac{1}{R} \cdot \frac{l}{S} \quad (4)$$

Shunday qilib, 1 sm uzunlikdagi va ko`ndalang kesim yuzasi  $1 \text{ cm}^2$  bo`lgan o`tkazgichning elektr o`tkazuvchanligi solishtirma elektr o`tkazuvchanlik deb ataladi.

Oralig`i 1 sm bo`lgan ikki yassi va bir-biriga papalell joylashgan ikki elektrod o`rtasida 1 g-ekv elektrolit saqlagan eritmaning elektr o`tkazuvchanligi ma'lum suyultirishdagi ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik deyiladi  $\lambda_v$ . ( $\lambda$ -lyambda)  $\lambda_v = \chi \cdot 1000V \cdot \text{Om}^{-1} \text{sm}^2 \cdot \text{g-ekv}^{-1}$  (4<sup>2</sup>)

bu erda  $V$  - 1g-ekv. modda saqlagan eritma hajmi bo`lib, u litrda hisoblanadi va uni suyultirish soni deb yuritiladi.

Solishtirma va ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik orasidagi bog`lanishni quyidagicha tushuntirish mumkin. Agar idishga 1 sm<sup>3</sup> eritma solinsa uning elektr o`tkazuvchanligi solishtirma elektr o`tkazuvchanlikka teng bo`ladi. Eritmadan yana qo'shib borilsa umumiyl elektr o`tkazuvchanlik ham ortib boradi va eritma hajmida 1 g-ekv. elektrolit saqlagan holatda, elektr o`tkazuvchanlik ekvivalent elektr o`tkazuvchanlikka teng bo`ladi. Ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik eritmani suyultirish bilan ortib boradi va cheksiz suyultirishda u ma'lum bir maksimum qiymatga erishadi, buni cheksiz suyultirishdagi elektr o`tkazuvchanlik  $\lambda_\infty$  / deyiladi.  $\lambda$  - erituvchi va erigan modda tabiatira va temperatypaga bog`liq.  $\lambda_\infty$  / Kolraush qonuni (ya'ni ionlarning mustaqil harakatlanish qonuni) ga binoan ayni elektrolitni tashkil etuvchi kation ( $l_k$ ) va anion ( $l_a$ ) harakatchanliklarining summasiga teng.  $\lambda_\infty = l_k + l_a$

Ayrim ionlarning har xil haroratdagi harakatchanliklarining qiymati quyidagi jadvalda keltirilgan

1-jadval


Suvlik, cheksiz suyultirilgan eritmalarda ionlarning harakatchanliklari

Kationlar	$18^\circ$	$25^\circ$	Anionlar	$18^\circ$	$25^\circ$
$H^+$	315	349	$OH^-$	173,8	197,b
$Na^+$	43,2	50,1	$CH_3COO^-$	35,0	39,8
$K^+$	b4,2	74,5	$NO_3^-$	b1,b	70,b
$NH_4^+$	b4,3	74,5	$Cl^-$	b5,2	75,5
$\frac{1}{2} Mg^{2+}$	45,0	53,7	$\frac{1}{2} SO_4^{2-}$	b8,0	79,0

Tajribada o`tkazgichning qarshiligi to`g`ridan-to`g`ri o`lchanib, so`ngra  $\chi$  va  $\lambda$  larni va shularga bog`liq boshqa kattaliklarni hisoblab topish mumkin.

### Elektrolit eritmalarining qarshilagini aniqlash

”Kolraush ko’prigi” sxemasi yordamida elektrolit eritmalarining qarshiligi aniqlanadi.



**2-rasm. Kolraush ko’prigi sxemasi.**

Sxemada AS reoxordni bildiradi. Reoxord uzunligi 1000 mm dan iborat Г`maxsus qotishmadan tayyorlangan va yuqori qarshilikka ega bo`lgan Г` o`tkazgich (sim) tortilgan lineykadir. O`tkazgichning har bir 1 mm uzunligi, 1 om qarshilikga teng bo`ladi. Δ -surgichni bildiradi. Г - yuqori chastotali o`zgaruvchan tok generatorini bildiradi. Т – kichik qarshilikka ega bo`lgan telefon yoki naushnik.

Eritmalarning elektr o`tkazuvchanligini aniqlashda o`zgarmas tokdan foydalanib bo`lmaydi, chunki bu vaqtida elektroliz jarayoni sodir bo`lib, eritmada erigan modda miqdori o`zgarib, elektrodlarning qutblanishi va o`tkazuvchanlikning kamayishi kuzatiladi.

Sxemada VS – elkada platinalangan platina elektrodlari tushirilgan va tekshiriluvchi eritma ( $R_x$ ) solinadigan shisha idish joylashgan. Bu shisha idish termostatga tushirilgan, (chunki harorat o`zgarishi bilan eritmaning qarshiligi ham o`zgaradi). AV –elkada qarshiliklar magazini ( $R_3$ ) жойлашган.

Eritmaning qarshiligini quyidagicha aniqlanadi. AV-elkada joylashgan qarshiliklar magazini yordamida  $R_3$  – qarshilik beriladi, shy paytda surgich – D ni, lineyka bo`ylab chapga va o`ngga suriladi va telefon yoki naushnikda eshitiladigan yuqori chastotali o`zgaruvchan tok uchun xarakterli ovozning eng past eshitiladigan nuqtasi topiladi. (a ( $R_1$ ) yoki АΔ oraliq masofa). Shunday qilib, telefonda ovoz eng past eshitilganda yoki umuman yo`qolsa, bu paytda «Kolraush ko’prigi» elkalari (AB, BC, АΔ, ΔC) о`rtasida quyidagicha nisbat yuzara keladi.

$$A\Delta = R_1 \quad DC = R_2 \quad AB = R_3 \quad BC = R_x, \quad \frac{R_3}{R_x} = \frac{R_1}{R_2}; \quad (b)$$

Bundan  $R_x = R_3 \frac{R_2}{R_1}$  (7) kelib chiqadi. Bu erda  $R_x$  eritma qarshiligi,  $R_3$  – qarshiliklar magazinidan olinadigan qarshilik.  $R_1$  va  $R_2$  – lineykada АΔ va DC oraliq`lariga to`g`ri keladigan qarshiliklar. Bu oraliq (masofalar)ga to`g`ri keladigan qarshiliklar nisbati o`rniga, oraliq masofalar nisbatini ham olish

9

mumkin.

$$\text{Bundan } R_x = R_3 \frac{1000-a}{a}; \quad (8)$$

bu erda “a” – АДоралиқ (masofa) uzunligi, mm, “1000-а” – ДС oraliq (masofa) uzunligi, mm.

Shunday qilib, /8/ tenglama yordamida eritma qarshiligi topilgandan so`ng, solishtirma elektr o`tkazuvchanlikni hisoblab topish mumkin tenglama yordamida.

$$C = \chi_{KCl} R_{X(KCl)} \quad (9)$$

Bu erda C – idishning sig`imi (idish doimiyligi) bo`lib, uni kontsentratsiyasi 0.02n bo`lgan kaliy xlorid eritmasi yordamida topiladi.  $\chi_{KCl}$  - ayni haroratda, 0.02 n. kontsentratsiyali kaliy xlorid eritmasi uchun olingan (jadvaldan) solishtirma elektr o`tkazuvchanlik qiymati.  $R_x$  - 0.02 н. Kontsentratsiyali KCl eritmasi uchun tajribada aniqlangan qarshilik.

Quyidagi jadvalda har xil haroratlarda, turli kontsentratsiyali KCl eritmalarini uchun solishtirma elektr o`tkazuvchanlik qiymatlari keltirilgan.

Jadval 2.

Har xil haroratlarda, turli kontsentratsiyali KCl eritmalarini uchun keltirilgansolishtirma elektr o`tkazuvchanlik,  $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$ .

Harorat, 0C	1 n. KCl	0,1 n. KCl	0,01n. KCl	0,02 n. KCl
15	0.09252	0.01048	0.001147	0.002243
18	0.09827	0.01120	0.001225	0.002397
21	0.10400	0.01181	0.001305	0.002553
25	0.11180	0.01288	0.001413	0.0027b5

### 1-laboratoriya mashguloti. Konduktometrik usulda kuchsiz elektrolitning ionlanish darajasi va konstantasini aniqlash.

1 - Ish. Idishning sig`im qarshiligi (idish doimiyligi)ni aniqlash. Buni amalga oshirish uchun avval mustaqil ravishda ishga tegishli nazariy va amaliy savollarga javob topib, ishning bajarilish tartibi bilan tanishib chiqish kepak.

#### Ishning bajarilish tartibi

1. “Kolraush ko`prigi” sxemasi asosida 0.02 n. KC1 eritmasi uchun qarshilik topiladi.

2. Ayni haroratda bepilgan 0,02 n. KC1 eritmasi uchun 2 jadvaldan solishtirma elektr o`tkazuvchanlik ( $\chi$ ) qiymati olinadi.

3. Berilgan (2) tenglama yordamida idish sig`im qarshiligi (S) hisoblanadi.

#### Ishning bajapilishi bo`yicha ayrim ko`rsatmalar

Eritma qarshiligini o`lchash uchun ishlataladigan idish va unga tyshirilgan elektrodlar 2 marta distillangan suv bilan yuvilib, 0,02 n. KC1 eritmasi bilan ham 2-3 marta chayib tashlanadi. So`ngra idishga pipetka yordamida 10,0 ml 0,02 n. KC1 eritmasidan solinadi va idish termostatga tyshiriladi. Sxema bo`yicha qurilma qismlarining to`g`ri ulanganligini tekshirib chiqiladi. O`zaro tutashadigan elektr

simlarining uchlari plastmassa qobig'idan ajratilgan va mayda "qum qog'ozi" yordamida yaxshilab tozalangan bo'lishi kerak. Eritma solingan idish termostatda 10-15 minyt yshlab turiladi va so`ngra tajriba olib boriladi. Buning uchun reoxord elektr simi orqali o`zgaruvchan tok manbaiga ulanadi. Telefonda bir qadar yuqori va ravon ovoz eshitilganligiga ishonch hosil qilinganidan so`ng, o`lchashni boshlash mumkin. Har bir natija uchun 3 marotaba o`lchash qaytariladi va o`rtacha qiymat hisobga olinadi. O`lchash tugagandan so`ng tok manbai uzib qo`yiladi. Idishdagi eritma to`kib tashlanadi va distillangan suv bilan idish chayib qo`yiladi.

### **O`lchash natijalari**

Idishning sig`im qarshiligi (9) tenglama yordamida hisoblanadi. O`lchash natijalarini quyidagi jadvalga yozib boriladi.

Tajriba	Qarshiliklar magazinidan olinadigan qarshilik	AD-masofa, mm	DS-masofa, mm
1.			
2.			
3.			

Tajriba natijalari bo`yicha o`lchashning nisbiy xatoligi aniqlanadi.

2 - Ish. Sirka kislotsasi eritmasi uchun dissotsialish darajasi (b) va ionlanish konstantasi (K) ni aniqlash va shu asosda vodorod ionlarining kontsentratsiyasi  $[H^+]$  ni aniqlash.

Bu ishni bajarish uchun mavzuga tegishli nazariy va amaliy savollarga tegishli ma'lumotlar bilan tanishib chiqing.

### **Ishning bajapilish tartibi**

1. "Kolraush ko`prigi" sxemasi; bo`yicha berilgan 4 xil kontsentratsiyali sirka kislotsasi eritmalari uchun qarshiliklar aniqlanadi.

2. Idishning sig`im qarshiligin bilgan holda 4 xil sirka kislotsasi eritmalari ychun solishtirma va ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik qiymatlari hisoblanadi.

3. Sirka kislota eritmasi uchun ionlanish darajasi (b) va konstantasi (K)ni hisoblanadi.

4. 2 va 3 punktlarda keltirilganlapdan foydalanib 4 xil sirka kislotsasi eritmalari uchun ionlanish darajasi va konstantasini hisoblanadi.

5. Sirka kislotasining turli kontsentratsiyali eritmalari uchun dissotsialish darajasi va ionlanish konstantasi qiymatlarini bilgan holda vodorod ionlari kontsentratsiyasini hisoblanadi.

### **Ishning bajarilishi bo`yicha ayrim ko`rnatmalar**

Idishning sig`im qarshiligi aniqlangandan so`ng, idish va elektrodlar yaxshilab distillangan suv bilan yuviladi. So`ngra 2-3 marta 0,1 n. sirka kislotsasi eritmasi bilan chayib tashlanadi. Idishga pipetka yordamida 0,1 n sirka kislota eritmasidan solinadi va idish termostatga tushiriladi. Termostatda idish 10-15

minut ushlab turiladi va so`ngra xuddi 1 ishdagidek o`lchash olib boriladi.

Tajribani shuningdek 0,05 n. va 0,025 n. sirka kislota eritmalari uchun ham qaytariladi.

### O`lchash natijalari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

1. KCl qarshiligi  $R_{KCl} = R_3 \frac{1000 - a}{a}$
2. Idishning sig`im qarshiligi:  $C = \chi_{KCl} \cdot R_{KCl}$
3. Tekshiriluvchi eritmaning qarshiligi:  $R_x = R_3 \frac{1000 - \epsilon}{\epsilon}$
4. Solishtirma elekt o`tkazuvchanlik:  $\chi = \frac{C}{R_x}$

Ekvivalent elekto`tkazuvchanlik:

$$\text{Suyultirish soni } V = \frac{1}{C} \quad \lambda_v = \chi \cdot 1000 \cdot V = \frac{\chi \cdot 1000}{C}$$

5. Cheksiz elekt o`tkazuvchanlik:

$$\lambda_\infty = \ell_a + \ell_\kappa$$

6. ionlanish darajasi:

$$\alpha = \frac{\lambda_v}{\lambda_\infty}$$

7. ionlanish konstantasi:

$$K = \frac{a^2 \cdot c}{1 - a}$$

8. Vodorod ioni kontsentratsiyasi:  $[\text{H}^+] = \alpha \cdot C \cdot n$ ,

9. Vodorod ko`rsatgich:  $\text{pH} = -\lg[\text{H}^+]$

Sirka kislotasi eritmasi uchun ionlanish darajasi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$\alpha = \frac{\lambda_v}{\lambda_\infty};$$

$\lambda_\infty$  -cheksiz suyultirishdagi ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik bo`lib, uning qiymati 1-jadvaldan olinadi. Sirka kislotasi uchun ionlanish konstantasi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi.

$$K = \frac{\alpha^2 C}{1 - \alpha}; \quad \text{yoki} \quad K = \frac{\alpha^2}{(1 - \alpha)V};$$

Vodorod ionlarining kontsentratsiyasi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi.

$$[\text{H}^+] = \alpha \cdot C \cdot n$$

Bu erda S - kislota eritmasining molyar kontsentpatsiyasi, n - kislota

ionlanishidan hosil bo`lgan vodopod ionlarining soni. Tajribada olingan natijalar quyidagi jadvalga yozib boriladi.

C, n	V, l	a, mm	1000-a, mm	R <sub>X</sub> , om	$\chi$ , om <sup>-1</sup> sm <sup>-1</sup>	$\lambda_v$	$\alpha$	K

Olingan natijalar bo`yicha solishtirma va ekvivalent elektr o`tkazuvchanlikning eritmani suyultirish bilan qanday o`zgarishini grafik tarzda chizib ko`rsating va tushuntiring?

## **2-laboratoriya mashguloti. Konduktometrik titplash.**

Eritmalar elektr o`tkazuvchanligi, eritmada mavjud ionlar harakatchanligi bilan bog`liqdir. Bu holat, ayrim titplashlar paytida indikator o`rnida elektr o`tkazuvchanlikdan foydalanish mumkinligini ko`rsatadi. Bunday titplash konduktometrik titplash deyiladi.

Ma'lumki, xajmiy titplash jarayonida indikator o`z rangini o`zgartiradi, bu rangsiz, tiniq eritmalarda aniq kuzatilishi mumkin. Agar tekshiriluvchi eritma rangli yoki loyqa bo`lib, tiniq bo`lmasa (fiziologik va biologik eritmalar) u holda indikatorlarni ishlatib bo`lmaydi. Chunki indikator rangining keskin o`zgarishini aniq kuzatib bo`lmaydi.

Tekshiriluvchi eritmani titrant bilan titplash jarayonida hap bir hajm titrant qo`shilganda elektr o`tkazuvchanlikni aniqlab borish asosida grafik tuzib ekvivalent nuqtani aniqlash mumkinligini Kyuster taklif etdi. Konduktometrik titplashni har xil kislota, asos va tuzlarning miqdorini aniqlashda, hamda biologik va fiziologik suyuqliklarni titplashda ham qo`llashimiz mumkin.

O`zaro tenglashadi (neytrallanish nuqtasida). Olingan natijalarni grafik tarzda ifodalansa, nuqtalar orqali ikkita to`g`ri chiziq o`tkazish mumkin. Bu to`g`ri chiziqlarning o`zaro kesishgan nuqtasi ekvivalent nuqtaga to`g`ri keladi. Bu nuqtadan abstsissaga perpendikulyar tushirilsa, titplash uchun sarf bo`lgan ishqorning hajmi ma'lum bo`ladi.

### **Bumerang (aks-sado) treningi.**

#### **1 – guruh**

1. Eritmani suyultirish bilan kuchsiz elektrolit ionlanish konstantasi qanday o`zgaradi?
2. Konduktometrik titplash grafigini tuzishda, ordinata o`qiga qanday elektr o`tkazuvchanlik qo`yiladi?

3. Nima sababdan titrlash davomida magazinning qarshiligi o'zgarmas b bo'lishi kerak?

## **2 – guruuh**

1. Kuchli kislotani kuchli ishqor bilan konduktometrik titrlash grafigini chizib, tushuntirib bering?
2. Kuchsiz kislotani kuchli ishqor bilan konduktometrik titrlash grafigini chizib tushuntirib bering?
3. Kuchli va kuchsiz kislota aralashmalarini kuchli ishqor bilan konduktometrik titrlash grafiklarini chizib tushuntirib bering?

## **3 – guruuh**

1. Nima sabadan vodorod va gidroksil ionlarining harakatchanliklari, boshqa ionlar harakatchanliklaridan katta?
2. Nima sababdan ishqoriy metal ionlarining harakatchanligi, metallarning atom massasi ortishi bilan ortib boradi?
3. Ionlarning mustaqil harakatchanliklari haqidagi Kolraush qonuni, matematik ifodasi va amaliy ahamiyati?

## **4 – guruuh**

1. Indikator ishtirokidagi oddiy hajmiy titrlashga nisbatan, konduktometrik titrlashning afzalligi bormi?
2. Erituvchida yomon eriydigan elektrolitlarning eruvchanligini konduktometrik usulda aniqlash nimaga asoslangan?
3. O'zgaruvchan tok chastotasining va kuchlanishning o'zgarishi elektrolit eritmasining elektr o'tkazuvchanligiga ta'sir etadimi?

**Kerak bo'ladigan asbob uskunalar va reaktivlar:** elektr o'tkazuvchanlikni aniqlovchi R-38 asbobi yoki KL1-2 rusmdagi «Impuls» konduktometri yoki FE30/EL30 Mettler Toledo nomli asboblari; elektrodli titrlash idishi; mikrobyuretka yoki 25 ml li byuretka; hajmi 10-20 ml li pipetka; mexanik aralashtirgich yoki shisha tayoqcha; 0,001M li HCl eritmasi: 0,001 M li  $\text{CH}_3\text{COOH}$  eritmasi; 0,1 M li NaOH eritmasi.

### **Ishning bajapilish tartibi:**



1. Konduktometrik titrlashda elektr o'tkazuvchanlikni aniqlash asbobidan foydalilanadi.
1. Tekshirilayotgan eritmadan ma'lum hajmda (10-20 ml) idish (stakan)ga quyiladi. Agar eritma elektrodlarni yopmasa, elektrodlar suyuqlik bilan to'liq yopilguncha distillangan suv quyiladi.
2. Byuretkaga ma'lum konsentratsiyali ishqor eritmasi quyiladi va u tekshirilayotgan eritma tepasiga o'rnatiladi.

3. Byuretkadagi ishqor eritmasidan 0,1-0,2 ml dan quyilib eritma yaxshilab aralashtiriladi
4. Asbob ko'rsatgan qiymat yozib boriladi.
5. Kislota neytrallangach yana 3-4 marta ishqor eritmasidan qo'shib o'lchash natijalari yoziladi.
6. Kuchsiz kislotani titrlaganda neytrallanish tugaganligini qarshilik qiymatining kamaya boshlaganidan bilsa bo'ladi.
7. Olingan natijalardan ishqor eritmasining turlicha miqdorlarida eritmaning elektr o'tkazuvchanligi hisoblanadi.
8. Keyin abessissalar o'qiga ishqor eritmasining millilitrlardagi hajmi, ordinatalar o'qiga esa elektr o'tkazuvchanlikni qo'yib grafik chiziladi.
9. Grafikdagi nuqtalar orqali abssissalar o'qi bilan kesishguncha to'g'ri chiziqlar (urinmalar) o'tkaziladi.
10. Abtsissa o'qida hosil bo'lgan kesma kislotani neytrallash uchun zarur bo'lgan ishqor eritmasi miqdoriga to'g'ri keladi.
11. Ishqor konsentratsiyasini bilgan holda tekshirilayotgan kislota konsentratsiyasi aniqlanadi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

Qo'shilgan ishqor miqdori, ml	Asbob ko'rsatkichi	Eritmaning elektr o'tkazuvchanligi

### 1. Kuchli kislotani kuchli asos bilan konduktometrik titrlash:



**4-rasm.** Kuchli kislotani kuchli ishqor bilan titrlash grafigi.

Xlorid kislotasiga natriy ishqori qo'shilsa, gidroksil ionlari tez harakatlanadigan vodorod ionlari bilan birikadi va dissotsialanmaydigan suv hosil bo'ladi. Vodorod o'mida eritmada unga nisbatan kam harakatlanadigan natriy ioni qoladi ( $I_{\text{Na}^+}=43$ ). Shu sababli titrlash borasida elektr


o'tkazuvchanlik minimumga yetadi. Keyingi qo'shilgan 1 tomchi ( $I_{OH}=174$ ), gidroksil ionlarining harakatchanligi tufayli elektr o'tkazuvchanlik yana oshadi. Grafik chizilsa  $\chi=f(V, NaOH)$ , ya'ni absissa o'qiga titrlashga sarflangan ishqoming ml miqdori, ordinata o'qiga esa eritma elektr o'tkazuvchanligi qo'yilsa, 4-rasmda ko'rsatilgan egri chiziq hosil bo'ladi.

Titrlash borasida hosil bo'lgan egri chiziqning singan joyidan abtsissa o'qiga peffendikulyar tushirib, ekvivalent nuqta (E) topiladi. Bu nuqtada titrlash uchun sarflangan ishqor miqdori topiladi. Buning uchun ushbu proporsiyadan foydalaniladi:


$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{N_2}{N_1(HCl)} ; \quad N_1(HCl) = \frac{N_2 \cdot V_2}{V_1}$$

$V_1$  — berilgan, HCl hajmi;  $V_2$  — ishqor hajmi, grafikdan topiladi;

$N_2$  — ishqor konsentratsiyasi, ma'lum.




5-rasm. Kuchsiz kislotani kuchli ishqor bilan titrlash grafigi.



6-rasm. Kuchli va kuchsiz kislotalar aralashmasini kuchli ishqor bilan titrlash grafigi.


## 2. Kuchsiz kislotani (masalan, sirka kislotasi), kuchli asos (NaOH) bilan titrlash.



Titrlash borasida yomon dissotsiatsiyalanadigan sirka kislotasi, uning yaxshi dissotsiatsiyalanadigan tuziga almashinadi. Demak, titrlash borasida elektr o'tkazuvchanlik ortadi. Ekvivalent nuqtada elektr o'tkazuvchanlik  $OH^-$  ioni hisobiga keskin ortadi (5-rasm). Yuqoridagi proporsiya usuli bilan kuchsiz kislotalar miqdori aniqlanadi.


## 3. Kuchli va kuchsiz kislotalar aralashmasini konduktometrik titrlash.

Masalan,  $HCl + CH_3COOH$  bo'lsa,  $NaOH$  eritmasi bilan titrlansa:



Dastlab kuchli kislotalar titrlanadi. Elektr o'tkazuvchanlik pasayadi;  $HCl$  tugagandan so'ng,  $CH_3COOH$  titrlanadi; elektr o'tkazuvchanlik natriy atsetat hisobiga yana asta-sekin ko'tariladi. Grafikda 2 ta singan nuqta kuzatiladi; I nuqta  $HCl$  ni, II nuqta esa.  $CH_3COOH$  ni titrlashga ketgan  $NaOH$  hajmi

ifodalaydi (6-rasm).



**7-rasm.** Kuchsiz kislotani kuchsiz asos bilan titrlash grafigi.

**8-rasm.**  $\text{BaCl}_2$ ni  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  bilan titrlash grafigi.


#### 4. Kuchsiz kislotani kuchsiz asos bilan titrlash.



Yuqoridagi reaksiyada kuchsiz elektrolitlar ta'siri natijasida kuchliroq elektrolit — tetraborat ammoniy hosil bo'ladi. Shu tufayli titrlash borasida elektr o'tkazuvchanlik ortib boradi. Ekvivalent nuqtadan so'ng, grafik bo'yicha elektr o'tkazuvchanlik qariyib o'zgarmaydi. Chunki hosil bo'lgan tetraborat ammoniy kuchli elektrolit bo'lgani uchun ortiqcha qo'shilgan  $\text{NH}_4\text{OH}$  elektr o'tkazuvchanlikka ta'sir ko'rsatmaydi (7-rasm). Xuddi shunday hol  $\text{CH}_3\text{COOH} + \text{NH}_4\text{OH} \rightarrow \text{CH}_3\text{COONH}_4 + \text{H}_2\text{O}$  misolida ham takrorlanadi:

#### 5. Cho'ktirish reaksiyasiga asoslangan konduktometrik titrlash.

Masalan,



Reaksiya natijasida yomon eriydigan  $\text{BaSO}_4$  hosil bo'ladi ( $Z_R = 1,08 \cdot 10^{-10}$ ).  $\text{Ba}^{++}$  ionlari titrlash borasida  $\text{Na}^+$  ioniga almashinadi. Binobarin, elektr o'tkazuvchanlik pasayadi (8-rasm).

#### 3 - Ish. Konduktometrik titrlash yordamida berilgan kislota kontsentratsiyasini aniqlash.

##### Ishning bajarilish tartibi

Kontsentratsiyasi noaniq kislota eritmasining qarshiligi topish.

Tekshiriluvchi kislota eritmasini, kontsentratsiyasi aniq bo'lgan ishqor bilan titrlash. Har bir qo'shiladigan (0,5 ml) ishqor hajmidan so'ng eritma qarshiligi aniqlab boriladi.

Olingan natijalar asosida grafik tuziladi.

Grafikdan kislotani titrlash uchun sarf bo'lgan ishqorning hajmini aniqlanadi. Kislota kontsentratsiyasi hisoblanadi.

##### Ishning bajarilishi bo'yicha ayrim ko'rsatmalar

Elektr o'tkazuvchanlikni aniqlash uchun ishlataladigan idishga pipetka

yordamida 10 ml, kontsentratsiyasi aniqlanishi kerak bo`lgan kislota eritmasi solinadi. Qarshiliklar magazinidan olinadigan qiymat shunday bo`lishi kerakki, telefonda eshitiladigan ovozning pasayishi reaxordning o`rta qismiga to`g`ri kelsin. So`ngra byuretkadan 0,5 ml kontsentratsiyasi aniq ishqor qo`shilib, yaxshilab aralashtiriladi. Surgichni lineyka bo`ylab chapga, o`ngga surib, telefonda ovoz past eshitiladigan (holat) nuqta topiladi (qarshiliklar magazinidan olinadigan qarshilik qiymati tajriba oxirigacha doimiy bo`lishi kerak). Lineykada topilgan АД –oraliq masofa (yoki “a”) (8) tenglamaga muvofiq, titrlanuvchi eritma elektr o`tkazuvchanligiga to`g`ri proportsionaldir. Ishqor eritmasi, tokining qiymati oshib boruvchi 3 ta qiymatlar olinguncha qo`shib boriladi. Titplash tugagandan so`ng generatorning ishlashi to`xtatiladi, idishdagi aralashma to`kib tashlanadi va unga distillangan suv solib qo`yiladi. Grafik tuzishda ordinata o`qiga tajribada lineykadan olingen “a” masofa, abstsissa o`qiga ishqorning hajmi(V) qo`yiladi. Grafikdan titplashga sarf bo`lgan ishqorning hajmi topiladi va quyidagi formula yordamida kislota kontsentratsiyasi aniqlanadi.

$$C_1 V_1 = C_2 V_2$$

Bu erda  $C_1$  –kislota kontsentratsiyasi,  $V_1$  -olingen kislota eritmasining hajmi,  $C_2$  –ishqorning kontsentratsiyasi,  $V_2$ - grafikdan ekvivalent nuqtaga to`g`ri kelgan ishqor hajmi.

Konduktometrik titplash natijalarini quyidagi jadvalga yozib boriladi.

Qo`shilgan ishqor hajmi, ml	
Lineykadan olinadigan “a” masofa, mm	

#### **4 - Ish. Erituvchida kam eriydigan tuzlarning eruvchanligini konduktometrik usulda aniqlash.**

Bu tajribani bajarish uchun aniqlash usuliga tegishli nazariy va amaliy savollarga mustaqil o`qib, javoblar topib, ishlash tartibi bilan tanishib chiqish kerak.

##### **Ishning bajarilish tartibi**

1. Berilgan 0,02 n. kaliy xlorid eritmasi uchun idish doimiyligini topish.
2. Distillangan suvning qarshiliginini aniqlash.
3. To`yingan bariy sulat eritmasi qarshiliginini aniqlash.
4. Yuqorida topilgan qiymatlar asosida suvning va to`yingan bariy sulfat eritmasining solishtirma elektr tkazuvchanligi xisoblanadi.
5. Jadvalda (1) keltirilgan qiymatlar asosida, berilgan haroratda bariy sulfat uchun “cheksiz suyultirishdagi ekvivalent elektr tkazuvchanlik” aniqlanadi.
6. 4 va 5 punktlar bo`yicha topilgan natijalar asosida bariy sulfatning eruvchanligi topiladi

Ma'lumki, erituvchida yomon eriydigan tuzning eritmasida ionlar kontsentratsiyasi juda kichik bo'ladi, shuning uchun ham bunday eritmaning ekvivalent elektr o'tkazuvchanligini, "cheksiz suyultirishdagi ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik" deb qarash mumkin. Yuqoridagi keltirilgan (4) tenglamani quyidagicha yozish mumkin:  $\lambda_{\infty} = \chi_{BaSO_4} \cdot \frac{1000}{C}$  (14)

Bu erda  $\chi_{BaSO_4}$  - to'yingan bariy sulfat eritmasining solishtirma elektr o'tkazuvchanligi, S – to'yingan bariy sulfat eritmasining kontsentratsiyasi, g-ekv/l. 1-jadvalda keltirilgan qiymatlar asosida, (5) tenglama yordamida (( - hisoblanadi. To'yingan bariy sulfatning solishtirma elektr o'tkazuvchanligining juda kichikligini va suvning solishtirma elektr o'tkazuvchanligiga yaqin kelishini nazarda tutib, tajribada topiladigan

$\chi$  (bariy sulfat to'yingan eritmasi), ( $\chi_{BaSO_4}$ ) va suv ( $\chi_{H_2O}$ ) solishtirma elektr o'tkazuvchanliklarining summasiga teng deb qaraladi.

$$\chi_{to'yinganeritma_{BaSO_4}} = \chi_{BaSO_4} + \chi_{H_2O}$$

bundan quyidagini topish mumkin  $\chi_{(BaSO_4)} = \chi_{(to'yingan eritma_{BaSO_4})} - \chi(H_2O)$

$$u paytda tenglama quyidagicha yoziladi: \lambda_{\infty} = \left( \chi_{to'yinganeritma_{BaSO_4}} - \chi_{H_2O} \right) \frac{1000}{C}$$

$$bundan C = \left( \chi_{to'yinganeritma_{BaSO_4}} - \chi_{H_2O} \right) \frac{1000}{\lambda_{\infty}}$$
 (15)

### Ishning bajarilishi bo'yicha ayrim ko'rsatmalar

Bariy sulfatning to'yingan eritmasini tayyorlashda ishlataladigan distillangan suv uchun va tayyorlangan to'yingan bariy sulfat eritmasi uchun qarshiliklar topiladi (2-rasmda keltirilgan sxema bo'yicha).

Idish sig`imi qarshiliqi, distillangan suv va to'yingan bariy sulfat eritmasi uchun solishtirma elektr o'tkazuvchanlik (1) va (4) tenglamalar yordamida hisoblanadi. Berilgan temperaturada, tuzning suvda eruvchanligi (15) tenglama yordamida hisoblanadi.

### Mustaqil ishlashi uchun keltirilgan topshiriqlar (savollar, masalalar, test variantlari)

1. 1 va 2 xil o'tkazgichlar va ularni o'zaro qanday farqlash mumkin?
2. Elektr o'tkazuvchanlik deb nimaga aytildi va u qanday o'lchov birliklarda o'lchanadi?
3. 1 va 2 xil o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligini aniqlash uslubida qanday farq mavjud?
4. Elektrolit eritmalarining elektr o'tkazuvchanligi qanday faktorlarga bog'liq bo'ladi?
5. Konduktometrik titrlash grafigini tuzishda, ordinata o'qiga qanday elektr o'tkazuvchanlik qo'yiladi?

6. Nima sababdan titrlash davomida magazinning qarshiligi o`zgarmas bo`lishi kerak?
7. Kuchli kislotani kuchli ishqor bilan konduktometrik titrlash grafigini chizib tushuntirib bering?
8. Kuchsiz kislotani kuchli ishqor bilan konduktometrik titrlash grafigini chizib tushuntirib bering?
9. Kuchli va kuchsiz kislota aralashmalarini kuchli ishqor bilan konduktometrik titrlash grafiklarini chizib tushuntirib bering?
10. Nima sababdan vodorod va gidroksil ionlarining xarakatchanliklari, boshqa ionlar xarakatchanliklaridan katta?
11. Nima sababdan ishqoriy metall ionlarining xarakatchanligi, metallarning atom massasi ortishi bilan orta boradi?
12. Ionlarning mustaqil xarkatchanliklari xaqidagi Kolraush qonuni, matematik ifodasi va amaliy ahamiyati?
13. Indikator ishtirokidagi oddiy xajmiy titrlashga nisbatan, konduktometrik titrlashning afzalligi bormi?
14. Erituvchida yomon eriydigan elektrolitning eruvchanligini konduktometrik usulda aniqlash nimaga asoslangan?
15. O`zgaruvchan tok chastotasining va kuchlanishning o`zgarishi, elektrolit eritmasining elektr o`tkazuvchanligiga ta'sir etadimi?

### Masalalar

1.  $25^{\circ}\text{C}$  da 0.1 n. KCl eritmasi uchun magazin qarshiligi  $20\text{ Om}$  bo`lganda, telefonda minimum ovoz eshitilgan nuqta  $l_1=25.9\text{ sm.}$ ,  $l_2 = 24.1\text{ sm.}$  ga teng bo`lsa, idishning doimiyligi topilsin?

Javob:  $0.24\text{ sm}^{-1}$

2. Yuzasi  $2\text{ sm}^2$  bo`lgan ikki elektrod orasida joylashgan 0.1 n  $\text{AgNO}_3$  eritmasining qarshiligi  $100\text{ om}$ , ekvivalent elektr o`tkazuvchanligi  $120,4\text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2 \cdot \text{g-ekv}^{-1}$  bo`lsa, elektrodlar orasidagi masofani toping? (Arap  $\lambda_{\infty}\text{CH}_3\text{COOH} = 391\text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2 \cdot \text{g-ekv}^{-1}$  bo`lsa)

Javob:  $2.408\text{ sm}$

3. Oralig`i  $1.72\text{ sm}$ , diametri  $1.34\text{ sm}$ . ga teng bo`lgan yumaloq platina elektrodlari tushirilgan idishga 0.05 n.  $\text{NaNO}_3$  eritmasi solingan. Eritma orqali kuchlanishi  $0.5\text{ V}$  bo`lgan  $1.85\text{ amper}$  tok o`tgani. Eritmaning solishtirma va ekvivalent elektr o`tkazuvchanliklari topilsin?

Javob:  $4.512 \cdot 10^{-3}\text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$  va  $90.24\text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2 \cdot \text{g-ekv}$ .

4.  $25^{\circ}\text{C}$  da 0.05 n.sirka kislota eritmasi uchun ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik topilsin?, (agar  $\lambda_{\infty}\text{CH}_3\text{COOH} = 391\text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2 \cdot \text{g-ekv}^{-1}$  va  $K_{\text{CH}_3\text{COOH}} = 1.8 \cdot 10^{-5}$  ga teng bo`lsa.)

Javob:

5. Solishtirma elektr o`tkazuvchanligi  $2.77 \cdot 10^{-3}$   $\text{Om}^{-1}$   $\text{sm}^{-1}$  va ekvivalent elektr o`tkazuvchanligi  $136.3$   $\text{Om}^{-1}$ .  $\text{sm}^2 \cdot \text{g-ekv}^{-1}$  larga teng bo`lgan KCl eritmasining kontsentratsiyasi topilsin?

Javob: 0.02 n.

b. Idish doimiyligi  $0.60 \text{ sm}^{-1}$  ra teng bo`lgan idishga  $25^\circ\text{C}$  da  $0.0078 \text{ n. propion kislota eritmasi solindi va telefonda minimum ovoz quyidagi nuqtadal}_1=48 \text{ sm}, (l_2=52 \text{ sm})$  eshitildi.

Toza suv uchun o`sha idishda topilgan qarshilik  $10^5 \text{ Om}$  ga teng bo`lsa. Kislota eritmasi uchun ionlanish konstantasi topilsin?

Javob:  $1.3 \cdot 10^{-5}$ .

7. Oksalat kislota ( $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$ ) eritmasining normal suyultirish soni  $30 \text{ ga teng bo`lsa, ushbu kislota eritmasi uchun normal kontsentratsiya aniqlansin? Javob:}$

8. Ammoniy xlorid eritmasidagi  $\text{Cl}^-$  ionining tashish soni  $t=0.491 \text{ ga teng .Agar eritmaning cheksiz suyultirishdagi ekvivalent elektr o`tkazuvchanligi } 149.0 \text{ } \text{Om}^{-1} \text{sm}^2 \cdot \text{g-ekv}^{-1}$  ga teng bo`lsa, kation ( $\text{NH}_4\text{OH}$ ) ning absolyut tezligi topilsin?

Javob:  $7.8 \cdot 10^{-4} \text{ sm}^2/\text{sek.}$

9.  $0.1 \text{ n. ammoniy gidroksid eritmasining } 40^\circ\text{C}$  dagi ionlanish konstantasi  $2 \cdot 10^{-5}$  ga teng bo`lsa, eritma tarkibidagi  $\text{OH}^-$  ionining kontsentratsiyasini aniqlang.

Javob:  $1.4 \cdot 10^{-3} \text{ g-ion/l.}$

10. To`yingan talliy bromid ( $TlBr$ ) eritmasi uchun solishtirma elektr o`tkazuvchanlik  $20^\circ\text{C}$  da  $2.158 \cdot 10^{-1} \text{ } \text{Om}^{-1} \text{sm}^{-1}$  ra teng. Tajribada tuzni eritish uchun ishlatiladigan distillangan suvning solishtirma elektr o`tkazuvchanligi  $0.044 \cdot 10^{-6} \text{ } \text{Om}^{-1} \text{sm}^{-1}$ . va cheksiz suyultirishdagi tuz eritmasi uchun ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik  $138.3 \text{ } \text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2 \cdot \text{g-ekv}^{-1}$  ra teng. Talliy bromidning eruvchanligi topilsin?

Javob:

11. Maxsus jadvallarda keltirilgan ionlarning cheksiz suyultirishdagi ekvivalent elektr o`tkazuvchanligi qiymatlaridan foydalanib quyidagi keltirilgan juft eritmalar uchun konduktometrik titrlash grafiklarini tuzing?  $\text{AgNO}_3$  va  $\text{HCl}$ ;  $\text{AgNO}_3$  va  $\text{NaOH}$ ;  $\text{KBr}$  va  $\text{AgNO}_3$ ;  $\text{KOH}$  va  $\text{HCOOH}$ ;  $\text{AgNO}_3$  va  $\text{NaBr}$ ;  $\text{BaCl}_2$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  $\text{NH}_4\text{OH}$  va  $\text{CH}_3\text{COOH}$ .

### Test savollari

1. Birinchi tur o`tkazuvchilar:

grafit, 2. kvarts, 3. parafin 4. metallar, 5. oq fosfor, b. tuz suyuqlanmasi. 7. rezina. 8. yog`och. 9. kumush 10. elektrolitlar. 11. kremniy 12. selen.

a) 1.4.9 Б) 1.4.11.12 Б) 1.4.9 с) 3.5.4.7 д) 2.b.8

Ionlar hisobiga elekt tokini o`tkazuvchi moddalar:

1. grafit, 2. elektrolitlar, 3. olmos, 4. simob, 5. yogoch, b. rezina, 7 parafin, 8. tuz suyuqlanmalari, 9. kremniy, 10. germaniy.

a) 1.5.6. Б) 2.4.7.9 Б) 6.9.10 с) 2.8 д) 9.10

3. Kuchsiz elektrolitlar uchun diss. konstantasini xisoblash tenglamasi?

$$a) K = \frac{a \cdot 1000}{\sigma \cdot \Delta t}, b) K = \frac{C_1}{C_2}, c) K = \frac{a^2}{(1-a) \cdot c}, d) K = \frac{a^2}{(1-a) \cdot v}$$

4."Ion kuchi" ini hisoblash formulasi:

$$a) \lambda_{\infty} = v_k + v_A, b) V = V_0, c) J = \frac{1}{2} \sum C^2 \cdot Z^2, d) I g \gamma = -0.509 Z^2 \sqrt{J}$$

5. "Ionning absolyut tezligi"ning o'lchov birligi:


$$a) \text{Om}^{-1} \sum C^2 \cdot Z^2 \cdot C^2, b) \text{Om}^{-1} \sum C^2 \cdot cm^2 \cdot s^{-1}, c) cm^2 \cdot C^{-1} \cdot B^{-1} \cdot s^{-1}$$

b. Ekvivalent elektr o'tkazuvchanlikni xisoblash aniqlash formulasi:



$$a) N = C / R, b) R = \rho \frac{l}{s}, c) \lambda = N \cdot 1000 \cdot c, d) \lambda = N \cdot 1000 \cdot Vc / C$$

7. Kolraush sxemasi

A



B



8. "Ion xarakatchanligi"ni o'lchov birligi:

$$A) \text{om}^{-1} \text{ b) } \text{Om}^{-1} \text{sm}^2 \text{g-ekv}^{-1}, \text{ v) } 1/\text{sm.s} \text{ sm}^2 \text{s}^{-1} \text{B}^{-1}$$

9. Ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik qanday faktorlarga bog'liq?

- 1) modda tabiatiga; 2) idish doimiyligiga; 3) temperaturaga; 4) diss-ya darajasiga; 5) kontsentratsiyaga?

a) 1.4 b) 2.3 v) 2.4.5 s) 1.3.4.5

10. Yarim o'tkazgichlar:

grafit, 2) kvarts, 3) parafin, 4) metallar, 5) farfor, b) tuz suyuqlanmasi, 7) rezina, 8) yog'och, 9) simob, 10) elektrolitlar, 11) kremniy, 12) germaniy

a) 1.4.9 b) 6.10 v) 5.7.8. s) 1.2.4.9 d) 11.12

11. Elektronlar hisobiga elektr tokini o'tkazuvchi moddalar:


- 1) grafit, 2) farfor, 3) simob, 4) rezina, 5) tuz eritmasi, b) kislota eritmasi, 7) yog'och, 8) alyuminiy, 9) olmos
- a) 1.2.3 b) 4.5.b v) 1.3.8 г) 1.9

12. Faradey soni:

a)  $6.02 \cdot 10^{23}$  b)  $22.4 \text{ l v}$  c)  $96500 \text{ g}$  d)  $1.6 \cdot 10^{-19}$

13) Kuchli va kuchsiz kislota ( $\text{HCl} + \text{CH}_3\text{COOH}$ ) aralashmasini kuchli asos ( $\text{NaOH}$ ) bilan konduktometrik titrlash grafigi.

14. Ekvivalent elektr o'tkazuvchanlikni o'lchov birligi:



a)  $\text{sm}^{-1}$

b)  $\text{om}^{-1} \text{ v}$

c)  $\text{sm}^{-1}$

d)  $\text{Om}^{-1} \text{ sm}^2$

15. Yomon (kam) eriydigan modda eruvchanligini elektr o'tkazuvchanlik orqali aniqlash formulasi:

$$a) \chi = \frac{1}{R} \cdot \frac{l}{S}, b) R = \frac{1}{\chi} \cdot \frac{l}{S}, c) C = \frac{(\chi - \chi_{\infty}) \cdot 1000}{\lambda_{\infty}} \quad d) E = \varphi_1 + \varphi_2 e) R = \chi \cdot 1000 \cdot V$$

1b. O'tkazgichning qarshiligini aniqlash formulasi:

$$a) R = \frac{C}{\chi} \quad b) R = \frac{R_1 R_2}{R_3} \quad c) R = \rho \frac{l}{S} \quad d) R = \frac{1}{\chi} \frac{l}{S} E \quad e) C, d$$

17. Elektroliz qonunlarini ochgan olim:

a) Om; b) Volta; c) Kulon; d) Faradey; e) Nernst.


18. Kolraush formulasi:

$$a) \lambda = \lambda_{\infty} - A \sqrt{C} \quad b) \lambda_V = \lambda_{\infty} - \alpha C \quad c) \lambda_C = \frac{\lambda \cdot 1000}{C} \quad d) \lambda_{\infty} = F(V_K + V_A)e) A, D$$

19. Ostvaldning suyultirish (kuchsiz elektrolitlar uchun) qonuni:

$$a) \alpha = \frac{\lambda_V}{\lambda_{\infty}} \quad b) \lambda_V = \chi \cdot 1000 \cdot Vc \quad c) K = \frac{C_1}{C_2} \quad d) K = \frac{\alpha_2 \cdot C}{1 - \alpha} \quad e) K = \Delta t / m$$

20. Elektr o'tkazuvchanlikni aniqlash sxemasi:



## 21. Ion xarakatchanligi:

$$a) \lambda_{\infty} = \alpha \cdot F(V_+ + V_-) b) \lambda_{\infty} = F(U_+ + U_-)C) \lambda_{\infty} = \lambda_{(+)} + \lambda_{(-)}d) A, B, C.$$

## 22. Ikkinch tur o`tkazgichlar:

1) grafit 2) kvarts 3) parafin 4) metallar 5) chinni b) tuz suyuqlanmasi 7) rezina 8) yog`och

9) Hg 10) elektrolitlar 11) Se 12) Ge

a) 1.2.4 б) 10 С) 3.5.7.8 Д) 10.11.12

## 23. Solishtirma elektr o`tkazuvchanlikni xisoblash formulasi

$$a) \lambda = \lambda \cdot 1000 \cdot Vb) \chi = C / Rc) \lambda_{\infty} = \chi \cdot 1000 \cdot Cd) \lambda = \chi \cdot 1000 \cdot C$$

## 24. Kuchsiz kislota ( $\text{CH}_3\text{COOH}$ )ni kichli asos ( $\text{NaOH}$ ) bilan konduktometrik titrlash grafigi.

Ayrim kattaliklarning SGS va SI sistemalarida ifodalanishi (birliklari) va SGS sistemasidan Si sistemasiga o'tish koefitsentlari.

Kattalikning nomlanishi	Belgisi	SI sistemasidagi birligi	SGS sistemasi birligi	O`tish koefitsenti
Solishtirma qarshilik	$\rho - \rho_0$	Om.m	Om.sm.	$10^{-2}$
Radius	R	M	$A^0$	$10^{-10}$
Ионларнинг абсолют тезлиги	v	$M^2 \cdot B^{-1} \cdot c^{-1}$	$C M^2 \cdot B^{-1} \cdot c^{-1}$	$10^{-4}$
Suyultirish	v	$M^3/\text{kmol}$	L/mol	1
Xajm	V	$M^3$	л	$10^{-3}$
Solishtirma elektr o`tkazuvchanlik	$\chi$	$\text{Om}^{-1} \cdot m^{-1}$	$\text{Om}^{-1} \cdot sm^{-1}$	$10^{-2}$
Ekvivalent elektr o`tkazuvchanlik	$\lambda$	$\text{Om}^{-1} \cdot m^2 / \text{kg-ekv}$	$\text{Om}^{-1} \cdot sm^{-2} / \text{g-ekv}$ Simons	$10^{-1}$
Temperatura	T	Grad	$^{\circ}\text{C}$	$t + 273$

## **II BO`LIM. ELEKTR YURITUVCHI KUCH.**

### **ELEKTROD JARAYONLARI**

#### **Mavzuning texnologik kartasi**

Mavzu:	Elektr yurituvchi kuch va elektroddagi jarayonlar.
Mavzuning ahamiyati	Farmatsevtika amaliyotida eritmalarining pH qiymatini aniqlash, ulardagi ionlar faolligini o`lchash, potentsiometrik titrlash, muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullarning asosida esa elektr yurituvchi kuchni, hamda elektrod potntsiallarini o`lchash yotadi. Binobarin, mavzu yuqori kurs talabalarini o`qitishda va provizorlarning ish faoliyatida fundamental asos bo`lib hizmat qiladi.
Maqsad va vazifalar	Elektrodlar va redoks elektrodlar potentsiallarini aniqlash; EYuK ni o`lchash tajribasini multimediyasini kuzatish va amaliyotda bajarish. Eritmaning pH muhitini potentsiometrik usulda aniqlash; potentsiometrik usulda titrlash.
Mashg`ulotni tashkil etish	Ushbu mavzu 4 ta amaliy mashg`ulotga mo`ljallangan: Xar bir mashg`ulot uchun vaqt taqsimoti: berilgan mavzuni o`zlashtirilganligini aniqlash - 40 minut tajribani bajarish – 30 – 40 minut olingan natijalarini hisoblash – 20-30 minut ish joyini tartibga keltirish- 10- 20 minut
O`quv jarayoning mazmuni	Talabalarni elektrod potentsialining hosil bo`lishi uning nimalarga bog`liq bo`lishi bilan tanishadi va redoks potentsialarni o`lchash, eritmalarining pH ini potentsiometrik usulda aniqlash, hamda potentsiometrik usulda titrlashga o`rganadilar.
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<u>Uslub:</u> Og`zaki savol-javob, suhbat-munozara “Bumerang” texnologiyasi, klaster, hamkorlikda o`qitish, aqliy xujum, «B/BX/B» yoki «Insert» jadvallari. <u>Shakli:</u> Amaliy mashg`ulot, kichik guruhlarda va jamoada ishslash. <u>Vosita:</u> Tarqatma materiallar, ko`rgazmali vositalar-grafiklar, amaliy mashg`ulot olib boriladigan laboratoriyyada 2 V li akkumulyator, normal Weston elementi, reoxord, kalomel, vodorod va xingidron elektrodlari, PPTV-1 yoki R-375, P-300 markali potentsiometr, mis va rux elektrodlari (plastinkalari), elektrolitik ko`prik, byuretka, xingidron kukuni, kaliy xlorid, vodorod xlorid, natriy gidroksidi, mis (II) sulfati, rux sulfati eritmalarini va distillangan suv bo`lishi lozim. <u>Nazorat usuli:</u> kuzatish, suhbat-munozara, aqliy xujum,

	Bumerang texnologiyasi. Talabalar olgan bilimlarini «B/BH/B» yoki «Insert» jadvallarini to`ldirish orqali mustahkamlaydilar; <u>.Baholash:</u> Rag`batlantirish, o`z-o`zini baholash.
Kutiladigan natijalar	<u>O`qituvchi:</u> kompyuterda elektrod potentsiallarini, galvanik elementni, EYuK ni o`lchashni multimediya orqali tushuntiradi. Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o`zlashtirilishiga erishadi. Talabalar faolligini oshiradi, ularni mustaqil ishslashga o`rgatadi. Bir vaqtning o`zida ko`pchilik talabalarni baholaydi. <u>Talabalar:</u> Yangi bilimlarni egallaydi; yakka holda va guruh bo`lib ishslashni o`rganadilar. Nutq rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O`z-o`zini nazorat qilishni o`rganadilar; qisqa vaqtda ko`p ma'lumotga ega bo`ladilar.

### Bumerang (aks-sado) treningi.

Ushbu darsda talabalar kichik guruxlarga bo`linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Har bir guruh talabasi o`z fikrini bayon qiladi. O`z fikrini himoya qilayotgan guruhgaga boshqa guruhlari talabalari savol beradilar va guruhlari orasida “Bumerang” tarzida savol - javob ketadi. Bu usulda guruhlarga quyidagi vazifalar beriladi:

#### 1 – guruh

1. Metall va eritma chegarasida potentsiallar farqining vujudga kelish sabablari. qo`shter elektr qavatning hosil bo`lishi.
2. Elektrod potentsiali nima? Uni qanday elektrotdoga nisbatan aniqlanadi?
3. Metallarning kuchlanishlar qatori; normal elektrod potentsialiga ta'rif bering.

#### 2 – guruh

1. Elektrodlar potentsiallari qanday o`lchanadi?
2. Qaytar elektrod potentsial uchun Nernst formulasi?
3. Taqqoslash elektrodlari sifatida qanday elektrodlar qo`llaniladi?

#### 3 – guruh

1. Diffuzion potentsial nima?
2. Vestonning standart elementi xaqida nimalar bilasiz? U qanday maqsadda qo`llaniladi?
3. Indikator elektrodlar.

#### 4 – guruh

1. Daniel-Yakobi elementi, uning kimyoviy zanjir sxemasi, unda EYuK qanday vujudga keladi?

2. Alovida olingan mis va rux elektrodlarning potentsiallari (Cu va Zn) qanday o`lchanadi?
3. Taqqoslash elektrodlari. Ularni ushbu ishni bajrishdagi o`rni?

5 – guruh

1. Redoks elektrodlar. Misollar. Turlari.
2. Redoks elektrodlar uchun Peters tenglamasi
3. Redoks elektrodlarning ahamiyati.

### Aqliy xujum

O`tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida dars so`ngida og`zaki tarzda o`tkaziladi. O`qituvchi tomonidan aniq savollar beriladi. Talabalar qisqa va aniq javoblar beradilar. Berilgan javoblar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi. Bildirilgan fikrlar eshitilib, jamlab boriladi. So`ngra aniq va to`g`ri javob tanlab olinadi.

**ILOVA**

## INSERT JADVALI

### Grafik tashkil etuvchining turi , ahamiyati va xususiyatlari

#### “INSERT” jadvali

mustaqil o`qish vaqtida olgan ma`lumotlarni, eshitgan ma`ruzalarni tizimlashtirishni ta`minlaydi; olingan ma`lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o`zlashtirgan ma`lumotlarni bog`lash qobiliyatini shakillantirishga yordam beradi.

### O`quv faoliyatining tashkillashtirishni jarayonli tuzilmasi

Insert jadvalini to`ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida o`zlari to`ldiradilar.

O`qish jarayonida olingan ma`lumotlarni alovida o`zlari tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq kiritadilar  
**“V”** – men bilgan ma`lumotlarga mos;  
**“-”** – men bilgan ma`lumotlarga zid;  
**“+”** – men uchun yangi ma`lumot;  
**“?”** – men uchun tushunarsiz yoki ma`lumotni aniqlash, to`ldirish talab etiladi.

## **INSERT jadvali**

V	+	-	?

## **B/BX/B JADVALI**

### **B/BX/B JADVALI- Bilaman/ Bilishni hoh- layman/ Bilib oldim.**

Mavzu, matn, bo`lim  
bo`yicha izlanuvchilikni  
olib borish imkonini  
beradi.

Tizimli fikrlash,  
tuzilmaga keltirish, tahlil  
qilish ko`nikmalarini  
rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.  
Alovida kichik guruhlarda jadvalni  
rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo`yicha nimalarni bilasiz” va  
“Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga  
javob beradilar (oldindagi ish uchun  
yo`naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va  
2 bo`limlarini to`ldiradilar.

Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o`qiydilar.

Mustaqil kichik guruhlarda jad-valning 3  
bo`limini to`ldiradilar

## B/BX/B JADVALI

Bilaman	Bilishni hoh-layman	Bilib oldim

Yuqorida keltirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning maqsadi va tarbiyaviy xarakteri:

- hamkorlikda jamoa bo`lib ishlash mahorati;
- o`zgalar fikriga hurmat bilan qarash;
- ishga ijodiy yondoshish;
- o`z faoliyati natijalariga ma'sullik va qiziqish uyg`otish;
- talabalar faolligini oshirish.


### **Elektrod potentsiallari. Elektr yurituvchi kuch.**

#### **Galvanik element nazariyasi.**

Agar metall suvga tushirilsa, undagi ionlar erituvchi (suv)ning qutblangan molekulalari ta`sirida kristall panjaralaridan uzilib, suvga o`tadi. Kationlarning eritmaga o`tishi natijasida metall sathida ortiqcha elektronlar to`planib, uni manfiy zaryadlaydi. Metall sathiga yaqin turgan suyuqlik qatlamida kationlarning jamlanishi tufayli eritma musbat zaryadlanadi. Natijada plastinka sathidagi elektronlar suyuqlik qatlamidagi kationlardan tashkil topgan qo`sh elektr qavati vujudga keladi. (1-rasm)

Aslida elektrod, bu – bir-biriga tegib turgan ikkita o`tkazgich, metall, (birinchi tur o`tkazgich) va elektrolit (ikkinchi tur o`tkazgich) dan tashkil topgan sistemadir. Sathlar orasida (masalan: eritma - metall chegarasida)

va



**1-rasm. Eritma - metall chegarasida qo`sh elektr qavatini vujudga kelishi.**

potentsiallar farqi vujudga keladi. Bu elektrod potentsialidir.

Potentsial qiymati eritmadagi ionlar kontsentratsiyasiga bog`liq. Eritmadagi ionlar kontsentratsiyasi qancha yuqori bo`lsa, metalldan ionlarning eritmaga o`tishi shuncha qiyinlashadi. Shu sababli ionlar kontsentratsiyasining ortishi bilan metall potentsialining manfiy qiymati kamaya boradi. Agar metallning kristall panjaralari juda mustahkam bo`lsa va u o`zining tuzini saqlagan kontsentrlangan eritmasaga tushirilgan bo`lsa, ionlar metall plastinkasiga cho`ka boshlaydi. Bunda metall musbat zaryadlangan bo`lib, uning atrofidagi eritma esa manfiy zaryadlanadi. Bu holda ham qo`sh elektr qavat hosil bo`ladi. Uning ichki qismi musbat, tashqi satxi esa manfiy zaryadlanadi.

Shunday qilib, metallni suvga yoki o`zining ionini saqlagan eritmasiga tushirilsa, metall-eritma chegarasida qo`sh elektr qavat hosil bo`ladi va metall-eritma orasida potentsiallar farqi (potentsiallar skachogi- $\varphi$ ) vujudga keladi.

Nernst potentsiallar farqi- $\varphi$  ni, metallning elektro-litik eruvchanlik qobiliyati ( $r$ ) va eritmasiing osmotik bosimi ( $P$ ) bilan bog`liqlik tenglamasidan keltirib chiqaradi:

$$\varphi = \frac{RT}{nF} \ln \frac{P}{p} \quad (1)$$

Osmotik bosim ( $R$ ) eritma kontsentratsiyasiga to`g`ri proportsionaldir:

$P = KC$ ,  $R$  ni qiymatini (1) tenglamaga qo`ysak:

$$\varphi = \frac{RT}{nF} \ln \frac{KC}{p} \quad \text{kelib chiqadi, bundan} \quad \varphi = \frac{RT}{nF} \ln K + \frac{RT}{nF} \ln C - \frac{RT}{nF} \ln p$$

$R$ ,  $T$ ,  $F$ ,  $p$  va  $K$ - qiymatlar berilgan temperaturada, ma`lum metall va eritma uchun doimiy bo`lgani uchun, tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$\varphi = \varphi^0 + \frac{RT}{nF} \ln C \quad (2)$$

Bu qaytar elektrodlar uchun **Nernst tenglamasıdır**. Bu formula suyultirilgan eritmalar uchun ta`lluqli. Agar aktivlik koeffitsenti 1 ga teng bo`lmasa u holda formulani ushbu ko`rinishda ifodalananadi:

$$\varphi = \varphi^0 + \frac{RT}{nF} \ln a^{n+}$$

Bu erda:

$\varphi$  - elektrond potentsiali;

$\varphi^0$  - normal elektrond potentsial bo`lib, u eritmadagi metall ionlarining aktivligi  $1 \frac{\text{моль}}{\text{л}}$  bo`lgandagi potentsialni ifodalaydi;

$R$  - gaz doimiyligi,  $8.31 \frac{\text{Дж}}{\text{град.моль}}$ ;

$T$  - absolyut temperatura;

$n$  - metall atomi yo`qotgan yoki metall ionlari qabul qilib olayotgan elektronlar soni;

$F$  - Faradey soni,  $9.6500 \text{ К}$ ,

$a^{n+}$  - eritmadagi metall ionlari aktivligi, моль/л.

### Galvanik elementlar. Daniel – YAKobi elementi.

Ikkita elektroddan tashkil topgan zanjir galvanik element deb ataladi. Galvanik element ishlashi uchun metall plastinkalarini simlar orqali, eritmalarini esa elektrolitik ko`prik (naycha) orqali birlashtiriladi. Odatda elektrolitik ko`prik (kalit)ni tayyorlashda egilgan shisha naycha ichi agar-agar ivig`i bilan va KCl ning to`yingan eritmasi bilan to`ldiriladi.

Galvanik elementlarda kimyoviy energiya elektr energiyasiga aylanadi. Masalan, mis va rux elektrodlaridan tashkil topgan elementda elektr energiyasi, rux elektrodida ruxning oksidlanishi ( $Zn^0 \rightarrow Zn^{2+} + 2e^-$ ) va mis elektrodida misning qaytarilishi ( $Cu^{2+} + 2e^- \rightarrow Cu^0$ ) hisobiga hosil bo`ladi:




Rux plastinkasida to`planayotgan (ruxning rux ionlariga aylanishi hisobiga) elektronlar o`tqazgich orqali mis plastinkasiga o`tib mis ionlarini qaytaradi.


Elementda elektr tokini hosil qiluvchi umumiylar reaksiya quyidagicha ifodalanadi:



Agar ushbu galvanik elementga tashqaridan tok berilsa quyidagicha reaksiya sodir bo`ladi.



2-rasm. Galvanik element.




Galvanik element elektrodlari

orasidagi potentsiallarning maksimal farqi, elektr yurituvchi kuch deb ataladi. EYUK – bu shunday kuch, u 2 ta nuqtada ta`sir ko`rsatib, tokni o`tishiga undaydi. Binobarin, elektr tokini hosil bo`lishining asosiy sababi elekr yurituvchi kuchdir.

EYUK o`lchovi sifatida tegib turgan jismlar potentsiallarining farqi olinadi.


3- rasm qitar galvanik element



Agar ikki bir hil metall plastinkalari o`zlarining bir hil tarkibli, lekin har hil kontsentratsiyalari eritmalariga tushirilganda ham EYUK yuzaga keladi.

Elektrod potentsiallarining qiymatini aniqlash uchun standart taqqoslash

4-rasm. Kontsentratsion galvanik element



elektrodlari qo`llaniladi. Bunday standart elektrodlarga kalomel, xlorkumush va normal vodorod elektrodlari kiradi.

### Taqqoslash elektrodlari.



Bu elektrodlar, aksariyat, II- tur elektrodlariga oiddir. Bunda metall o`zining qiyin eriydigan tuzi qatlami bilan qoplangan bo`ladi va u shunday yaxshi eriydigan tuz eritmasiga tushiriladi, uning anioni o`sha qiyin eriydigan tuz anionga monand bo`lsin. Bunday elektrodlarga: xlorkumush elektrodi ( $Ag|AgCl, KCl$ ), simob sulfat elektrodi ( $Hg|Hg_2SO_4, K_2SO_4$ ), kalomel elektrodi ( $Hg|Hg_2Cl_2, KCl$ ) kiradi.

Bunday elektrodlarda elektrod potentsiali eritmadi anion aktivligi (kontsentratsiyasiga) bog`liq bo`ladi. YA`ni elektrod anionga nisbatan qaytar  $\varphi = \varphi^0 - \frac{RT}{nF} \ln a^{n-}$  xisoblanadi.

Eng ko`p amaliy ahamiyatga ega bo`lgan elektrodlar xlorkumush va kalomel elektrodlaridir.

**Xlorkumush elektrodi:** – u taqqoslash elektrodi bo`lib, unda kumush metallining ustiga kumush xlorid cho`ktirilgan bo`ladi va u kaliy xlor eritmasiga tushiriladi. Eritmada kaliy xlorid qattiq holdagi kumush xlorid bilan o`zaro muvozanatda bo`ladi.


Agar xlorkumush ( $Ag|AgCl, Cl^-$ ) elektrodi manfiy zaryadga ega bo`lsa, elektrod reaksiyasida kumush eritmaga ion holida o`tadi va u xlor ioni bilan ta`sirlashib, qattiq kumush xlorid hosil qiladi:



Agar elektrod musbat zaryadlangan bo`lsa, u holda elektrod sathida kumush to`planadi. Bunday elektrod potentsiali xlor ioni kontsentratsiyasiga bog`liq bo`ladi. To`yingan kaliy xlorid eritmasiga tushirilgan xlorkumush elektrodining potentsiali  $25^0C$  da  $0.201$  V ga teng.

**Kalomel elektrodi:** U ham taqqoslash elektrodi sifatida keng qo`llaniladi. U simob, va simobning xlorli tuzi – kalomel  $Hg_2Cl_2$  va kaliy xloridning ma`lum kontsetrasiyasidagi eritmasidan tashkil topgan bo`ladi:  $Hg|Hg_2Cl_2, KCl$


Kalamel elektrodi, qaytar xlor elektrodi kabi ishlaydi. Uning elektrod potentsiali ( $\varphi$ ) kaliy xlorid kontsetrasiyasiga bog`liq (5-rasm). Kalomel elektrodini tayyorlashda idish tubiga simob solinadi, uni ustiga kalomel ( $Hg_2Cl_2$ ) pastasi bilan qoplanadi. So`ngra unga platina simi tushiriladi. Platina simi o`z navbatida shisha naychaga ulanib, elektron qabul qilish yoki berish uchun xizmat qiladi.



**rasm. Kalamel elektrodi  
kontsentratsiyasiga bog`liq.**

**Vodorod elektrodi:** Agar platina plastikasini platina bilan qoplab, vodorod gazi bilan to`yintirilsa va uni vodorod ioni ( $H^+$ ) saqlagan eritmaga tushirilsa, u huiddi metall elektrodlari kabi ishlaydi:

Idish odatda to`yingan 0.1 M yoki 1.0 M kaliy xlorid eritmasi bilan to`ldiriladi. Kalomel elektrodi ishlaganda metall qaytariladi:  $Hg^{+} + e^{-} \rightarrow Hg$ , ya`ni  $Hg_2Cl_2 + 2e \xleftarrow{-} 2Hg + 2Cl^{-}$  doimiy temperaturada eritmadiagi simob ionlarining kontsentratsiyasi o`zgarmas bo`ladi. Bu esa kalomel elektrodini potentsialini yetarli darajada doimiy bo`lishini ta`minlaydi.  $Hg|Hg_2Cl_2$  chegarasida vujudga 5-keladigan potentsial kaliy xlorid eritmasining



Vodorod platina sathida adsorbsiyalanadi, bunda atom holigacha parchalanadi. Platinadagi vodorod atomi hamda eritmadagi vodorod ionı orasida yuqorida keltirilgan muvozanat vujudga keladi. Vodorod elektrondning potentsiali  $\varphi_H^0 = \varphi_H + \frac{RT}{nF} \ln a_{H^+}$  yoki  $\varphi_H^0 = \varphi_H + 0.059 \ln a_{H^+}$  ifodasi bilan belgilanadi. Agar  $a_{H^+} = 1$  1 моль/л va  $P = 1$  atm., u holda  $\varphi_{H^+} = \varphi_H^0$  boladi;  $\varphi_H^0$  qiymati shartli ravishda nol deb qabul


**6-rasm. Vodorod elektrodi qilinadi. (6-rasm).**

Istalgan elektrodning normal potentsiali normal vodorod elektrodiga nisbatan aniqlanadi. Vodorod elektrodining afzalligi, uni aniqligining yuqori bo`lishi, pH ning istagan qiymati (0-14) da ishlay olishi, eritmaning ion kuchini o`zgarishi bilan pH ni o`zgarmay qolishi (tuzli xato yo`qligi), elektr qarshiligidini kichik bo`lishi (bu oddiy patentsiometrlarda ishlashga imkon beradi) va boshqalardir. Vodorod elektrodining quyidagi kamchiliklari ham mavjud uni havo kislorodi, oksidlovchi qaytaruvchilar bor bo`lganda ishlatib bo`lmaydi. Bundan tashqari platinalangan platina (qora platina) vaqt o`tishi bilan ifloslanadi. Shu sababli uni tez-tez yangilab platinalab turish lozim. Elektrodning bunday sathi alkoloidlar, tsianidlar, mishyak va surma tuzlari va ularga shimaladigan kolloidlar bilan tezda buzilib qoladi.

## EYUK ni o`lchash.


Galvanik elementlarning yurituvchi kuchi kompensatsion usulda aniqlanadi. Bu usul sxemasi quyidagilardan iborat: Akkumlyator simlar orqali qarshilik

ko`prigining A va V tomonlariga ulanadi, so`ngra qarshilik ko`prigining chap tamoni (A) Veston elementining musbat hutbiga ulanadi. Veston elementining manfiy hutbi esa galvanometr va telegraf kalit (K) orhali harakatchan kalit (surgich S) ga ulanadi.



**Rasm 7 a. EYU-K o'lchash sxemasi**

1. Akkumlyator
2. Surgich
3. Kalit
4. Galvanometr




**Rasm 7 b. EYU-K o'lchash sxemasi**

Elektr yurituvchi kuchni o'lchash quyidagicha amalga oshadi: galvanometr strelkasini qo'yib yuborib, knopka orqali uni nol nuqtaga keltiriladi. So'ngra akkumlyator ulanadi. Kalit orqali galvanometr ham ulanib, uni strelkasini xarakati

kuzatiladi. Agar qarshilik ko`prigining A qismidan tok o`tsa, galvanometr strelkasi suriladi. Shundan so`ng surgichni o`ng va chapga surib shunday holat topiladiki, bunda zanjirda tok bo`lmasin. Binobarin bunday holatda galvanometr strelkasi ham nol nuqtada to`xtaydi (7-rasm).


Akkumlyator bevosita o`lchov vaqtidagina ulanib, boshqa vaqt uzib qo`yiladi.



Tekshiruvchi element sifatida Daniel-Yakobi elementi olinadi. Bu 1n rux sulfat eritmasiga tushirilgan rux va 1n mis sulfat eritmasiga tushirilgan mis plastinkalaridan tashkil topadi. Eritmalar o`zaro kaliy xloridning to`yingan eritmasi orqali bog`lanadi. Kaliy xlorid bog`lovchi o`tkazuvchi vazifasini o`taydi.

Daniel-Yakobi elementidagi ikkita bir-biriga tegib turuvchi eritmalar (1n rux sulfat va 1n mis sulfat) chegarasida diffuzion potentsial vujudga kelishi mumkin. Kaliy xlorid eritmasi ana shu diffuzion potentsialni yo`qotishga xizmat qiladi. Daniel-Yakobi elementining

**8-rasm. Weston elementi** EYUK ushbu reaktsiya tufayli vujudga keladi:  $Zn^0 + Cu^{2+} \rightleftharpoons Zn^{2+} + Cu^0$  Bunda mis musbat, rux esa manfiy zaryadlangan. Yarim elementlarni birlashtiruvchi naychalar, ular eritmalar bilan to`ldirilgan bo`lishi zarur Daniel-Yakobi elementini zanjiri quyidagi sxema bilan ifodalanadi.




EYUK ni to`g`ridan to`g`ri aniqlash uchun, dastlab sxemaga normal Weston elementi ulanadi: (8-rasm).



So`ngra kompensatsiya nuqtasi (AS) topildi. Olaylik u AS masofada joylashgan bo`lsin. Keyin normal Weston elementi o`rniga sxemaga Daniel-Yakobi elementi EYUK ma`lum, 1.0183V ga teng. Endi proportsiya orqali tekshiruvchi element EYUK aniqlaniladi:

$$\frac{AC - 1,0183}{AC_1 - X} \quad X = E = \frac{1,0183 \cdot AC_1}{AC}$$

Daniel-Yakobi elementini additivlik (yig`indi) qonunidan foydalanib ham aniqlash mumkin. Buning uchun ayrim elektrod potentsiallaridan foydalaniladi:  $E = \varphi_{Cu} - \varphi_{Zn}$ . Bu ishda taqqoslash elektrodi sifatida kalamel  $Hg|Hg_2Cl_2, KCl$  elektrodidan foydalaniladi. Kalemel elektrodining potentsial farqi normal vodorod elektrodiga nisbatan  $20^\circ S$  da  $\varphi_{kal} + 0.2486$  V ga teng. Mis elektrodining potentsialini aniqlash uchun rux elektrodi kalamel elektrodi bilan almashtirib quyidagicha zanjir tuziladi:



Bu element uchun ham sxema bo`yicha kompensatsiya nuqtasi  $AS_2$  topiladi va EYUK hisoblanadi:

$$\frac{AC - 1,0183}{AC_2 - X} = E = \frac{1,0183 \cdot AC_2}{AC}$$

$X = E_2 = \varphi_{\text{Cu}} - \varphi_{\text{kal}}$ ;  $\varphi_{\text{Cu}} = E_2 + \varphi_{\text{kal}}$  Rux elektrodini potentsialini aniqlash uchun, endi mis elektrodi o`rniga kalomel elektrodi ulanadi va zanjir tuziladi:



Tuzilgan zanjir uchun kompensatsion nuqta  $AS_3$  topiladi va EYUK ( $E_3$ ) topiladi:

$X = E_3 = \varphi_{\text{kal}} - \varphi_{\text{Zn}}$ ;  $\varphi_{\text{Zn}} = \varphi_{\text{kal}} - E_3$   $\varphi_{\text{Cu}}$  va  $\varphi_{\text{Zn}}$  qiymatlarini hisoblab formula orqali Daniel-Yakobi elementini EYUK topiladi.  $E = \varphi_{\text{Cu}} - \varphi_{\text{Zn}}$

### Bumerang (aks-sado) treningi.

Ushbu darsda talabalar kichik guruxlarga bo`linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Har bir guruh talabasi o`z fikrini bayon qiladi. O`z fikrini himoya qilayotgan guruhgaga boshqa guruhlar talabalari savol beradilar va guruhlar orasida “Bumerang” tarzida savol - javob ketadi. Bu usulda guruhlarga quyidagi vazifalar beriladi:

1 – guruh

1. Ishning maqsadi ?
2. Metallarning elektrolitik eruvchanlik qobiliyati nima?
3. Potentsiallar farqining vujudga kelish sababi?

2 – guruh

1. Qo`shter elektr qavatning hosil bo`lishi qanday tushuntiriladi?
2. Qaytar elektrod potentsial uchun Nernst formulasi?
3. Metallarning kuchlanishlar qatori; normal elektrod potentsialiga ta`rif bering.

3 – guruh

1. Normal Veston elementi va uning tarkibi, kimyoviy zanjir sxemasi va bu elementning EYUK ni topishdagi vazifasi?
2. Taqqoslash elektrodlari. Ularni ushbu ishni bajrishdagi o`rni?
3. Kompensatsiya nuqtasini aniqlash.

4 – guruh

1. Daniel-Yakobi elementining EYUK ini ikki xil usulda aniqlash;
  - A) to`g`ridan- to`g`ri;
  - B) additivlik qonuni asosida aniqlash, ya`ni ayrim elektrod potentsiallarini aniqlab, so`ng yig`indisi olinadi.
3. Daniel-Yakobi elementi, uning kimyoviy zanjir sxemasi, unda EYUK

qanday vujudga keladi.

### 5 – guruh

1. Diffuzion potentsial nima? Daniel-Yakobi elementida kaliy xlориднинг то` Yingan eritmasini nima maqsadda qo`llaniladi?
2. Mis va rux elektrodlarining potentsiallari  $\varphi_{Cu}$  va  $\varphi_{Zn}$  qanday topiladi?
3. Ushbu ishda ko`rsatib o`tilgan barcha galvanik elementlar kimyoviy zanjir sxemalarini yozib ko`rsating.

### Test savollari.

1. Qaysi holatda quyidagi reaksiya  $Me^{n+} + ne \rightarrow Me$  sodir bo`ladi?  
p-elektrod elektrolitik eruvchanlik qobilyati.  
 $\pi$ -eritma osmotik bosimi.  
 A)  $\pi > R$       B)  $\pi = R$       C)  $\pi < R$       D) A, V      E) A, V, S.
2. Daniel elementining EYUK ni hisoblang?  
(Additiv usulda hisoblash)  
 A)  $E = \varphi_{Zn} - \varphi_{Cu}$       B)  $\varphi_{Cu} = E - \varphi_{Zn}$       C)  $E = \varphi_{Zn} + \varphi_{Cu}$       D)  $E = \varphi_{Cu} - \varphi_{Zn}$
3. Additiv usulda tajribada  $\varphi_{Zn}$  ni aniqlash.  
 A)  $E = \varphi_{Cu} - \varphi_{Zn}$       B)  $\varphi_{Zn} = \varphi_{kai} - E$       C)  $\varphi_H^0 = \varphi_H^0 + \frac{0,059}{nF} \lg a_{Zn^{2+}}$   
 D)  $\varphi_{Zn} = E + \varphi_{Cu}$       E)  $\varphi_{Zn} = E + \varphi_{kai}$
4. Nernst tenglamasi (1-tur elektrodlar uchun).  
 A)  $\varphi = \varphi^0 + \frac{RT}{nF} \ln a^{n+}$       B)  $\varphi = \varphi^0 - \frac{RT}{nF} \ln a^{n-}$       C)  $\varphi = \frac{RT}{nF} \ln \frac{P}{\pi}$   
 D)  $\varphi = \varphi^0 + \frac{RT}{nF} \ln \left[ \frac{[\text{ox}]}{[\text{Red}]} \right]$       E)  $E = \varphi_1 - \varphi_2$
5. Nikel va kadmiy elektrodlaridan iborat galvanik elementi EYUK hisoblansin.  
Agar  $\varphi^0 = -0.403B$ ,  $\varphi^0 = -0.25B$  bo`lsa  
 A) 0,153      B) 0,1      C) 0,2      D) 0,3
- b. Kontsentratsion galvanik element sxemasini ko`rsating?  
 A)  $Cu|Cu^{2+}||Zn|Zn^{2+}$       B)  $Pt|C_{H^+} = x|KCl|Hg_2Cl_2|Hg$       C)  $Zn|C_{H^+}|C_{H^+}|Cu$   
 D)  $Ag|AgNO_3|AgNO_3|C_1|C_2|Ag$       E)  $Pt|C_{H^+}$
7. Ushbu jarayon  $Zn^0 + 2H^+ \rightarrow Zn^2 + H_2$  qaysi element o`zi ishlaganda sodir bo`ladi?  
 A) Daniel      B) Volta      C) Veston  
 D) Kalomel elektrodi      E) rux-kalomel galvanik elementida
8. Elektrod potentsiali:
  1. eritma-eritma chegarasida yuzaga keladi
  2. metall-metall chegarasida
  3. metall-eritma chegarasida

4. inert metall-eritma chegarasida  
 5. metall – simob chegarasida
- A) 1,5              B) 2              C) 3,4              D) 3              E) 1,3
9. Volta elementi
- A) qaytmas element      B) standart element      C) qaytar element
- D) issiqlik elementi      E) kontsentratsion element
10. 1-xil kontsentratsion (ion tashuvchili) element?
- A)  $Me \left( \frac{Hg}{a_1} \right) \parallel Me^{2+} \left( \frac{Hg}{a_2} \right) Me$       B)  $\frac{(Pt)H_2}{p_1} \parallel H^+ \left| \frac{H_2(Pt)}{p_2} \right.$       C)  $(-)Ag \left| \frac{AgNO_3^-}{a_1} \right. \parallel \left| \frac{AgNO_3}{a_2} \right| Ag(+)$
- D)  $(-)Cd(Hg) \parallel CdSO_4 \parallel Hg_2SO_4 | Hg(+)$       E) A, B
11. Additiv usulda tajribada  $\varphi_{Cu}$  qanday aniqlanadi?
- A)  $\varphi_{Cu=E_+} \varphi_{Zn}$       B)  $\varphi_{Cu=E} - \varphi_{KaL}$       S)  $\varphi_{Cu} = \varphi_{Zn} \cdot E$
- D)  $\varphi_{Cu=E_2+} \varphi_{KaL}$       E)  $\varphi_{Cu} = \varphi_{Cu}^{0 \frac{Cu^{2+}}{Cu}} + \frac{RT}{nF} In a_{Cu}^{2+}$
12. Mis-kalomel galvanik elementi uchun qaysi jarayon talluqli?
- A)  $Cu + Zn^{2+} \rightarrow Cu^{2+} + Zn$       B)  $2Hg + Cu^{2+} \rightarrow 2Hg^+ + Cu^0$       C)  $Zn + Cu^{2+} \rightarrow Zn^{2+} + Cu$
- D)  $ZnSO_4 + Cu \rightarrow CuSO_4 + Zn$       E)  $Zn + H_2SO_4 \rightarrow ZnSO_4 + H_2$

**POTENTSIOMETRIYA.  
 VODOROD IONLARI KONTSENTRATSİYASINI (pH)  
 POTENTSIOMETRIK USULDA ANIQLASH.  
 REDUKSOMETRIYA. POTENTSIOMETRIK TITRLASH.**


Vodorod ionlari ko`pgina kimyoviy va biokimyoviy jarayonlarga ta`sir ko`rsatadi. Shu sababli laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitidagi izlanishlarda vodorod ionlarining kontsentratsiyasini aniq o`lhash va bu qiyamatning miqdorini boshqarib borish muhim ahamiyatga ega. Eritmadagi vodorod ionlari kontsentratsiyasini ifodalashning qulay usuli vodorod ko`rsatkichi pH ni aniqlashdir. Eritmadagi vodorod ionlari kontsentratsiyasining manfiy ishorali logarifmi – pH dir:

$$pH = -\lg C_{H^+} \quad (1)$$

Aslida tajribada vodorod ionlari kontsentratsiyasi emas, balki ularning aktivligi ( $a_{H^+}$ ) topiladi. Shu sababli  $pH = -\lg a_{H^+}$  (2) holida yoziladi. Biroq, amaliyotda suytirilgan eritmalar bilan ishlanganda vodorod ionlarining aktivligi va kontsentratsiyasi orasidagi farq e`tiborga olinmaydi.

pH - ni aniqlashda kalorimetrik va potentsiometrik usullardan foydalaniladi. pH ni potentsiometrik usulda o`lhash ancha aniq usul hisoblanadi.

pH ni potentsiometrik usulda aniqlashda elektrod potentsiali ma`lum bo`lgan taqqoslash elektrodi va potentsiali vodorod ionlari kontsentratsiyasiga bog`liq bo`lgan elektroddan tashkil topgan elementning EYUK o`lchanadi. Potentsiali ma`lum bo`lgan elektrod sifatida ko`pincha kalomel yoki xlor-kumush elektrodi ishlatalidi. Tekshiriluvchi elektrod sifatida esa vodorod, xingidron, shisha va surma elektrodlaridagi birontasi qo`llaniladi.



Vodorod elektrodi bilan ishlanganda kalomel va vodorod elektrodlaridan tashkil topgan

### 9-rasm. Kalomel va vodorod elektrodlaridan tashkil topgan galvanik zanjir galvanik zanjir yig`iladi: (9-rasm).

$$(-) \text{Pt}_{(H_2)} | C_{H^+} = ? | KCl | Hg_2Cl_2 | Hg (+) \quad (1)$$

Kompensatsion usulda bu zanjirning EYUK aniqlanadi. Ma`lumki vodorod-kalomel zanjirining EYUK:

$$E = \varphi_{\text{kal}} - \varphi_H \quad \varphi_H = \varphi_H^0 + 0.059 \lg C_{H^+} \quad \text{bo`lgani uchun}$$

To`yingan kalomel elektrodining berilgan temperaturadagi potentsiali jadvaldan olinadi.  $\varphi$ n va  $\varphi$ kal qiymatlarini o`rniga qo`ysak:

$$E = 0.2438 - 0.059 \lg C_{H^+} \quad pH = -\lg C_{H^+} \quad \text{bo`lgani uchun}$$


$$E = 0.2438 - 0.059 pH \quad (3)$$

bundan

$$pH = \frac{E - 0.2438}{0.059} \quad (4)$$

SHunday qilib, vodorod-kalomel zanjirning EYUK ni aniqlab, formula (4) orqali eritma pH qiymati topiladi. Eritmaning pH qiymatini xingidron elektrodi yordamida ham aniqlash mumkin.


**Xingidron elektrodi:** – xingidron kukuni solib eritilgan va to`yingan tekshiriluvchi eritmaga tushirilgan silliq platina elektrodidir. Xingidron, bu – ekvimolekulyar nisbatda olingan xinon va gidroxinon aralashmasidir. Xingidron elektrodi qaytar oksidlaniш-qaytarilish (redoks) sistemasidir.



Xingidron elektrodining potentsiali ushbu tenglama bilan ifodalanadi:

$$\varphi_{x.e} = \varphi_{x.e}^0 + \frac{RT}{2F} \ln \frac{[\text{C}_6\text{H}_4\text{O}_2] \cdot [\text{H}^+]^2}{[\text{C}_6\text{H}_4(\text{OH})_2]}$$

Reaktsiya (5) dagi muvozanat boshqa oksidlanish-qaytarilish sistemalari bor bo`lgan sharoitda buzilmaydi deb inobatga olsak,  $\frac{[Xinon]}{[Gidroxinon]}$  nisbati doimiy va birga teng deb qabul qilsak bo`ladi.



**10-rasm. Xingidron va kalomel elektrodlaridan tashkil topgan galvanik zanjir**

U holda  $\varphi_{x.e} = \varphi_{x.e}^0 + \frac{RT}{F} \ln[H^+]$  Xingidron elektrodi indikator elektrodi sifatida  $pH = 8$  gacha ta`sir ko`rsata oladi. Bunday elektrod oddiygina tayyorlanadi: yaltiroq platina simi yoki plastinkasi tekshiriluvchi eritmaga tushiriladi. Uni taqqoslash elektrodi bilan birga oddiygina potentsiometrik sxemada qo`llash mumkin. Elektrodda muvozanat bir zumda vujudga keladi. U mikroanalizda qo`llanishi mumkin. Biroq bu elektrod faqat pHning qiymati 8 gacha bo`lsa ishlaydi;  $pH > 8$  bo`lganda  $\frac{[Xinon]}{[Gidroxinon]}$  nisbatidagi doimiylik buziladi;  $pH > 8$  bo`lganda, hatto atmosfera kislorodi ham muhitni aniqlashga xalaqit qiladi. Xingidron elektrodi yordamida pH aniqlanganda kompensatsion usulda xingidron-kalomel zanjirining EYUK o`lchanadi:

$$(-)Hg|Hg_2Cl_2|KCl|C_{H^+}_{x.g}=?|Pt(+) \quad (b)$$

formula (b) ni nazarda tutib, tenglamani ushbu ko`rinishda yozish mumkin.

$$\begin{aligned} E &= \varphi_{x.g} - \varphi_{kalomel} = \varphi_{x.g}^0 + 0.059 \lg C_{H^+} - \varphi_{kalomel} \\ &\quad - 0.059 \lg C_{H^+} = \varphi_{x.g}^0 - \varphi_{kalomel} - E \\ pH &= \frac{\varphi_{x.g}^0 - \varphi_{kalomel} - E}{0.059} \end{aligned}$$

Berilgan temperatura uchun  $\varphi_{x.g}^0 - \varphi_{kalomel}$  farq jadvaldan olinadi.


### Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. Ishning maqsadi?
2. pH ni potentsiometrik aniqlash mohiyati nimada?

3. pH ni potensiometrik aniqlashda qanday elektrodlardan foydalanish mumkin?
  4. Vodorod, xingidron elektrodlari yordamida pH ni aniqlash asosida nima yotadi?
  5. Kalomel-vodorod va kalomel-xingidron galvanik elementlari uchun pH ni hisoblash formulasini keltirib chiqara bilish?
- b. Vodorod va xingidron elektrodlari afzalliklari, kamchiliklari.

Laboratoriya mashg'ulot mavzusini yoritishda "Damino va aqliy hujum" pedagogik texnologiya usullaridan foydalanildi.

### "Damino" pedagogik texnologiya usul.



## Oksidlanish- qaytarilish sistemalari va potentsiallari (redoks sistemalar va redoks potentsiallar).

Muvozanatda turgan oksidlangan va qaytarilgan shakllarni saqlovchi bir yoki bir necha modda aralashmasining eritmasi-redoks sistema deyiladi. Oksidlanish-qaytarilish elektrodi, bu inert metal (Pt, Pd, Au) dan tashkil topgan plastinka bo`lib, u oksidlangan va qaytarilgan shakllarni saqlovchi eritmaga tushirilgan bo`ladi.


### **Masalan:**

$$Pt \left| \begin{array}{l} FeCl_3 \\ FeCl_2 \end{array} \right.; \quad Pt \left| \begin{array}{l} SnCl_4 \\ SnCl_2 \end{array} \right.; \quad Pt \left| \begin{array}{l} K_3[Fe(CN)_6] \\ K_4[Fe(CN)_6] \end{array} \right.; \quad Pt \left| \begin{array}{l} pirouzum \\ sut \end{array} \right. \begin{array}{l} k-ta \\ k-ta \end{array};$$


Oksidlanish-qaytarilish potentsiali, tarkibida moddaning oksidlangan va qaytarilgan shakllarini saqlovchi eritmaga elektrod tushirilishi natijasida vujudga keladigan potentsialga aytildi. Agar  $Pt \left| \begin{array}{l} Fe^{3+} \\ Fe^{2+} \end{array} \right.$  elektrodini istalgan boshqa elektrod

bilan ulab galvanik element hosil qilinishi mumkin, oksidlanish-qaytarilish (redoks) elektrodining zaryadi ushbu reaksiya  $Fe^{2+} \rightleftharpoons Fe^{3+} + e^-$  bo`yicha ifodalanadi: Agar sistemada oksidlanish jarayoni sodir bo`lsa, u holda elektrod zaryadi musbat bo`ladi, qaytarilish jarayoni sodir bo`lsa manfiy bo`ladi. Birinchi tur redoks sistemalarida moddaning oksidlangan (OX) va qaytarilgan (Red) shakllarining kontsentratsiyalari nisbatlarining o`zgarishi bilan ularning potentsiallari ham o`zgaradi. Oksidlangan shaklning qaytarilgan shaklga va aksincha, qaytarilgan shaklning oksidlangan shaklga aylanishi elektronlar o`tishi bilan sodir bo`ladi.  $Red - ne^- \rightarrow OX$

Redoks elektrod potentsiali Peters (1910) tenglamasi:  $\varphi_r = \varphi^0_r + \frac{RT}{nF} \ln \frac{[OX]}{[Red]}$  bilan ifodalanadi. Ko`pgina oksidlanish- qaytarilish sistemalarining, ayniqsa organik va biologik sistemalarning, potentsiallarining qiymati vodorod ionlarining kontsentratsiyasi (yoki pH muhitiga) ham bog`liq. Potentsiali pH muxitga ham bog`liq bo`lgan sistemalar, murakkab redoks sistemalar deb ataladi. Masalan, xingidron elektrodining redoks potentsiali oksidlangan va qaytarilgan shakllar va vodorod ionlarining kontsentratsiyasiga bog`liq (II- tur redoks sistema)



yoki umumiylarida Gidroxinon Xinon



Xingidron elektrodining potentsiali ushbu holatda quyidagicha ifodalanadi:

$$\varphi_{x.g} = \varphi^0_{x.g} + \frac{RT}{2F} \ln \frac{[C_6H_4O_2] \cdot [H^+]^2}{[C_6H_4(OH)_2]}$$

Kislotali muhitda gidroxinonning dissotsialish darajasi juda kichik; shu sababli xinon va gidroxinon kontsentratsiyalarini amalda teng deb qarash mumkin. U

holda xingidron elektrodi potentsialini quyidagicha:  $\varphi_{x,g} = \varphi^0_{x,g} + \frac{RT}{2F} \ln[H^+]^2$

$\varphi_{x,g} = \varphi^0_{x,g} + \frac{RT}{F} \ln[H^+]$  bundan  $\varphi_{x,g} = \varphi^0_{x,g} - 0.059 pH$  holda yozish mumkin.

Bu tenglamani eritmaning pH qiymatini aniqlashda qo'llash mumkin. [Pirouzum kislota] [sut kislota] sistemasi uchun oksidlanish-qaytarilish potentsiali, oksidlangan va qaytarilgan shakllar nisbatiga va vodorod ionlari kontsentratsiyasiga bog`liq:

$$\varphi_{n/s} = \varphi^0_{n/s} + \frac{RT}{2F} \ln \frac{[n] \cdot [H^+]^2}{[C]}$$

Bu erda n- pirouzum kislota, s- sut kislota. Formuladagi  $\varphi^0_{n/s}$  standart redoks elektrord potentsiali bo`lib, u oksidlangan va qaytarilgan shakllar o`zaro teng bo`lgan va vodorod ionlarining kontsentratsiyasi (aktivligi) birga teng bo`lgan eritmaga tushirilgan redoks elektrord potentsialidir. Oksidlanish qaytarilish elektrodlarida avval ko`rib o`tilgan elektrordlardan farqli o`laroq, oksidlanish va qaytarilish mahsulotlari elektrordlarda ajralib chiqmaydi.

Sistemaning oksidlanish-qaytarilish xossasi, redoks elektrord potentsiali qiymati bilan belgilanadi: Redoks elektrordning qiymati qancha katta bo`lsa, sistema oksidlovchilik xossasi shuncha yuqori bo`ladi.

Jadvalda ba`zi redoks sistemalarning normal (stand.) oksidlanish-qaytarilish potentsiallari keltirilgan. Agar  $Sn^{4+}, Sn^{2+}|Pt$  sistemasining  $\varphi^0 = 0.153B$ , va  $Fe^{3+}, Fe^{2+}|Pt$  sistemasi uchun  $\varphi^0 = 0.783B$  bo`lsa, bu potentsiallar qiymatiga asoslanib reaksiya o`tkazmasdan ushbu,  $Sn^{4+} + Fe^{2+} \rightleftharpoons Sn^{2+} + Fe^{3+}$  oksidlanish qaytarilish reaksiyasi to`g`ri yo`nalishda sodir bo`lmashagini oldindan aytib berish mumkin; Vaholanki, bu reaksiyani faqat qog`ozda yozish mumkin. Shunday qilib, turli sistemalarning standart oksidlanish-qaytarilish potentsiallari qiymatlarini o`zaro taqqoslab, ushbu oksidlanish-qaytarilish reaksiyasining ketish, ketmasligi haqida oldindan bashorat qilish mumkin.

Biologik sistemalarning redoks potentsiali muhim ahamiyatga ega. Chunki organizmdagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tartibi undagi redoks sistemalarini potentsiallari qiymati bilan belgilanadi.

$Pt|Fe(CN)_6^{3-}/Fe(CN)_6^{4-}$  sistemasining redoks potentsialini tajribada aniqlash. Dastlab


sxemaga Vestonning standart elementi ulanadi va uning kompensatsiya nuqtasi  $AC = R_B$  topiladi. So`ngra Veston elementi o`rniga tekshiriluvchi elektrordlardan tashkil topgan element ulanib (11-rasm) Rx topiladi va proportsiya tuziladi:

$$\frac{R_B - E_B}{R_x - E_x} = \frac{E_B \cdot R_x}{R_B}$$

Biz bilamiz:  $E_x = \varphi_r - \varphi_{kalomel}$ , bunda  $\varphi_r = \varphi_{kalomel} + E_x$  kelib chiqadi.

Bu erda:

- Ev - Veston elementi EYUK ( 0.0183B );  
 Ex - tekshiriluvchi elementning EYUK



11-rasm. Redoks elektrod va kalamel elektrodini o'lchash sxemasi

$0.01M$ $K_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$	$0.01M$ $K_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$	$2M$ $\text{KCl}$	$H_2O$	Rx	Ex	$\varphi_r = \varphi_{kal} + E_x$	$\varphi_r = \varphi_r^0 + \frac{RT}{F} \ln \frac{[\text{OX}]}{[\text{Red}]}$
10.0	1.0	5.0	-				
1.0	10.0	5.0	-				
5.5	5.5	5.0	-				
5.5	5.5	5.0	1b.0				

## Tayyorlanish va bilim darajasini tekshirish uchun savollar.

1. Ishning maqsadi?
2. Redoks elektrod redoks sistema nima?
3. Redoks sistema turlari (1.11)?
4. Peters tenglamasi?
5.  $\varphi_r$  - qayerda va qanday yuzaga keladi?
- b.  $\varphi_r$  - qanday faktorlarga bog`liq?
7. Qanday potentsial, redoks elektrod potentsiali deyiladi?
8. Galvanik element sxemasi?
9. Ish tartibi


### Potensiometrik titrlash

Potensiometrik titrlash fizik- kimyo analizida eng ko`p qo`llaniladigan muhim usuldir. Tekshiriluvchi eritmaga tushirilgan indikator elektrodining potentsialini titrlash borasida o`lchash, potensiometrik titrlashning asosini tashkil etadi. Potentsiali berilgan ion kontsentratsiyasiga bog`liq bo`lgan va uning kontsentratsiyasining o`zgarishi bilan potentsiali ham o`zgaradigan elektrod, indikator elektrodi deyiladi.

Elektrod potentsiali faqat modda tabiatiga bog`liq bo`lmay, balki shu elektrodga nisbatan qaytar bo`lgan eritmadagi ionlar kontsentratsiyasi  $C$  ga ham bog`liq.

$$\varphi_{Me/Me^{n+}} = \varphi^0_{Me/Me^{n+}} + \frac{0.059}{n} \lg C$$

Titrlash borasida, ion kontsentratsiyasi uzlusiz o`zgarishi natijasida elektrod potentsiali ham uzlusiz o`zgarib boradi. Bu usul rangli va loyqa eritmalarini, ko`p komponentli yoki kichik kontsentratsiyali eritmalarini, kuchsiz elektrolitlarni titrlashda qo`llaniladi. Bunday eritmalarini, oddiy indikatorlar yordamida titrlash bilan analiz qilib bo`lmaydi. Potensiometrik titrlash cho`ktirish, oksidlanish, qaytarilish, suvli va suvsiz eritmalarida kompleks hosil qilish kabi reaksiyalarga asoslangan. Misol tariqasida kuchli kislota (xlorid kislota) eritmasini ishqor (natriy gidroksid) eritmasi bilan titrlashni ko`rib o`tamiz.



12-pasm. Potensiometrik titrlash sxemasi

Indikator elektrodi sifatida pH ni aniqlashda qo`llaniladigan vodorod yoki xingidron va boshqa elektrodlarni ishlatish mumkin. Agar indikator elektrodi sifatida vodorod elektrodi qo`llanilsa, uni (tekshiriluvchi) titrlanuvchi eritmaga tushiriladi va


elektrolitik kalit (tuz ko`prigi) orqali biror-bir taqqoslash, chunonchi, kalomel elektrodi bilan ulanadi. (12-rasm)

Hosil bo`lgan vodorod-kalomel galvanik elementining dastlabki EYUK ni aniqlanadi, so`ngra byuretka orqali ma`lum hajmdagi ishqorning eritmasi tomizilishi bilan EYUK ham o`lchanib boriladi.

Bunda kislota eritmasidagi vodorod ionlarining kontsentratsiyasi kamayib boradi; pH bo`lsa ortadi. Bir vaqtning o`zida vodorod-kalomel zanjirining EYUK i ham ortadi. Chunki EYUK va eritma pH i o`rtasida to`g`ri chiziqli bog`liqlik mavjud ( $E = 0.2438 + 0.059 \rho H$ ). pH va EYUK ning eng keskin o`zgarishi ekvivalent nuqtaga to`g`ri keladi.

Tajribada olingan natijalar  $E - V_{ishqor}$  koordinatalari bo`yicha grafikka qo`yiladi (13-rasm) yoki  $E/\Delta V - V_{ishqor}$  koordinatalari bo`yicha ko`zga yaqqol tashlanuvchi differentsial egri chiziqlar (yoki differentsial egri chiziqning eng yuqori nuqtasi) olinadi. Ekvivalent nuqtaga to`g`ri keluvchi ishqor hajmi ( $V_1$ ) abtsissa o`qiga ekvivalent nuqtasidan chiziq tushirib topiladi.

Titrlash uchun olingan analiz qilinuvchi kislota hajmi ( $V_k$ ), ishchi eritma, (ishqor)ning normalligi ( $N_n$ ) ma`lum bo`lgani uchun, kislota normalligini osonlikcha aniqlash mumkin:



13-pasm.  $E - V_{ishqor}$  koordinatalari grafi

Agar kuchsiz kislota kuchsiz ishqor bilan titrlansa EYUK ning o`zgarishi keskin bo`lmaydi.

Kuchli va kuchsiz kislota aralashmasi, kuchli asos eritmasi bilan titrlansa, titrlash egrisida ikkita EYUK ning o`zgarishi kuzatiladi: birinchisi (anchagina keskin) kuchli kislota uchun mos kelsa, ikkinchisi (uncha keskin bo`limgani) kuchsiz kislotaning ishqor bilan butkul bog`lanishiga mos keladi. Potentsiometrik usulda eritmadagi xlor, brom, yod ionlarini va ular aralashmasini kumush nitrat eritmasi bilan ham titrlab aniqlash mumkin. Bunda indikator elektrodi vazifasini kumush plastinkasi, bog`lovchi eritma (ko`prikli tuz) rolini esa kaliy nitrat eritmasi bajaradi. Oksidlovchi va qaytaruvchilar aniqlanayotganda indikator elektrodi sifatida platina plastinkasi qo`llaniladi. Barcha potentsiometrik titrlash analiz usullarida eritmani doimo yaxshi aralashtirib turish muhim ahamiyatga ega.

$$\frac{N_k}{V_u} = \frac{N_u}{V_k} \quad N_k = \frac{V_u N_u}{V_k}$$

## AMALIY ISH

Amaliy ishni bajarishdan avval darslik, lektsiya konspekti va metodik qo'llanmalardan quyidagi materiallarni o'qib bilib oling: potentsiometrik titrlash usulining mohiyati, ekvivalent nuqtani aniqlash usullari, potentsiometrik titrlashning oddiy va differentsial egrilari; kislota, oksidlovchi va galloidlarni potentsiometrik titrlash; indikator elktrodlari va ularni potentsiometrik titrlashda qo'llash; potentsiometrik titrlashda EYUK ni o'lchash texnikasi.

**Vazifa:** Titrant sifatida  $\text{KMnO}_4$  ni nordon muhitdagi eritmasini qo'llab, kaly yodid eritmasi kontsentratsiyasini potentsiometrik usulda titrlash.

Vazifaning nazariy va amaliy tomonlarini yaxshi o'zlashtirganingizdan so'ng mustaqil holda potentsiometrik usul mohiyatini tahlil qiling. Sodir bo'ladigan reaktsiyalar tenglamasini yozing.

## ISH TARTIBI

1. Kompensatsion usulda (yoki potentsiometrda) galvanik zanjirning EYUK i o'lchanadi. Galvanik zanjir xlor-kumush taqqoslash elektrodi va redoks (aniqlash elektorodi) elektrodlaridan tashkil topgan bo'lib, platina simidan yasalgan redoks elektrod analiz-qilinuvchi (kontsentratsiyasi noma'lum bo`lgan 10 ml kaly yodid va 5 ml 2n sulfat kislota) eritmaga tushiriladi.
2. Analiz qilinuvchi eritma ma'lum kontsentratsiyali  $\text{KMnO}_4$  eritmasi bilan titrlana boradi. U tekshiriluvchi eritmaga 0.5 ml dan quyib boriladi.  $\text{KMnO}_4$  eritmasining (titrantning) har bir miqdori qo'shilgandan so'ng galvanik zanjir EYUK i o'lchanib boriladi. Olingan natijalar jadvalga yozib boriladi.
3. Jadvalga kiritilgan natijalar asosida egri chiziqlar chiziladi: Oddiy ko'rinishda  $E = f(v)$  va differentsiyalangan holatda  $\frac{\Delta E}{\Delta V} V$  Potentsiometrik titrlash egrisi orqali titrlash uchun sarflangan  $\text{KMnO}_4$  eritmasining hajmi topiladi va  $\text{KMnO}_4$  eritmasining kontsentratsiyasini ma'lumligini nazarga olgan holda kaly yodidning kontsentratsiyasi hisoblanadi.

### Potentsiometrik titrlash nazariyasi xaqida ilova.

Qo'shilayotgan eritma hajmi	E, mV	$\frac{\Delta E}{\Delta V}$ , mV/ml

Potentsiometrik titrlash usuli vodorod ioni aktivligini (yoki eritma pH) aniqlashdan tashqari potentsiometrik titrlash deb nom olgan umumiy kontsentratsiyani aniqlashda ham keng qo'llaniladi.

Potentsiometrik titrlashning mohiyati shundan iboratki, unda titrlanuvchi eritmaga tushirilgan elektrod potentsiali titrlash borasida o'zgarib boradi. Shunisi e'tiborliki, bu o'zgarish ekvivalent nuqtada keskin tus oladi.

**Ushbu mavzu bo`yicha talabalarning  
O`quv izlanishlari bo`yicha vazifalar.**

1. Nima uchun ushbu titrlashda indikator elektrodi sifatida redoks elektrod qo`llaniladi ?
2. Titrlash tugayotganligini qanday belgi orqali aniqlash mumkin?
3. Ushbu ishdagi potentsiometrik titrlash egrisining yo`nalishi qanday tushintirish mumkin?
4. Ushbu ishda indikator elektrodi sifatida shisha yoki xingidron elektrodlarini qo`llash mumkinmi? Agar mumkin bo`lmasa, nima uchun?

**Test savollari.**

1. Indikator elektrodlar:
 

1. Rux elektrodi;	2. Shisha elektrodi;
3. Kumush xlorid elektrodi;	4. Kalomel elektrodi;
5. Vodorod elektrodi;	b. Xingidron elektrodi;
7. Weston elementi.	

A) 1.3      B) 2.4.5.b      C) 3.4      D) 2.5.b      E) 7
2. Redoks elektrod potentsiali uchun Peters tenglamasi ?
 

A) $\varphi = \varphi^0 - \frac{RT}{nF} \ln \frac{\pi}{P}$	B) $\varphi = \varphi^0 + \frac{RT}{nF} \ln \frac{a_2}{a_1}$	C) $\varphi_0 - 0.059 pH$
D) $\varphi = \varphi^0 + \frac{RT}{nF} \ln \frac{[ox]}{[Red]}$	E) $\varphi = \varphi^0 + \frac{0.059}{n} \ln \frac{[ox]}{[Red]}$	
3. Vodorod elektrodining sxemasi:
 

A) $Pt H^+ =1$	B) $Pt H^+ =x$	C) $Pt_{(H_2)} H^+ =x$
D) $Pt[Hg]$	E) $Pt[Hg]Hg_2Cl_2 KCl$	
4. Ion tashish soni:
 

A) $\lambda_\infty = V_k + V_A$	B) $V = V_0 \cdot F$	C) $n = \frac{A}{F \cdot E}$
D) $\tau_{(+)} = \frac{\pi_{(+)} + \pi_{(-)}}{\pi_{(+)}}$	E) $\tau_{(-)} = \frac{\pi_{(-)}}{\pi_{(-)} + \pi_{(+)}}$	
5. II-xil redoks sistemalarni tanlang.
 

A) $Pt SnCl_4$	B) $Pt Fe(CN)_6 ^{-3}$	C) $Pt \frac{xuhonh}{[зидрохинон]} \cdot [H^+] $
D) $Pt FeCl_3$	E) $Pt FeCl_3$	$ FeCl_2$

b. Xingidron-kalomel zanjiri bo`yicha pH ni hisoblash formulasi?

$$A) pH = \lg[H^+]$$

$$B) pH = \frac{E - \varphi_{\text{кал}}}{0.059}$$

$$S) pH = \frac{\varphi_{x_e} - \varphi_x}{0.059} -$$

$$D) pH = \frac{E - \varphi^0_{H_2}}{0.059}$$

$$E) pH = \frac{\varphi_{x,e} - \varphi_{\text{кал}} - E}{0.059}$$

7. Agar ( $\pi$  eritma osm.bosimi, p-elektrodning elektrolitik eruvchanligi)  $P > \pi$  bo`lsa  
 1) elektrod musbat zaryadga ega; 2) elektrod manfiy zaryadga ega;  
 3) elektrodda  $Me^0 - ne^- \rightarrow Me^{n+}$  sodir bo`ladi;  
 4) elektrodda  $Me^{n+} + ne^- \rightarrow Me^0$  sodir bo`ladi.
- A) 1, 3              B) 2, 3              S) 2, 4              D) 1, 4
8. Kumush va kadmiy elektrodlaridan iborat galvanik elementning EYUK hisoblansin? Agar  $\varphi^0_{Ag} = 0.800B$ ;  $\varphi^0_{Cd} = 0.250B$  bo`lsa  
 A) 1.0              B) 1.05              S) 2.4              D) 1.4
9. Vodorod elektrodining kontsentratsiya va bosimga bog`liqlik potentsiali qaysi formulada aniqlanadi?
- A)  $\varphi = \varphi^0 + \frac{RT}{nF} \ln \frac{a_{H^+}}{P \%_{H_2}}$       B)  $\varphi = \varphi^0 + \frac{RT}{nF} \ln \frac{P \%_{H_2}}{a_{H^+}}$       C)  $\varphi_0 - 0.059pH$   
 D)  $\varphi = \varphi^0 + \frac{RT}{nF} \ln \frac{[ox][H^+]}{[Red]}$       E)  $ox + ne^- + mH^+ \rightarrow Red$

### O`quv materiallarini o`zlashtirish darajasini nazorat etish uchun vazifalar

- Agar 1 n rux sulfat eritmasini 10 marta suyultirilsa, unga tushirilgan rux elektrodining potentsiali qanchaga o`zgaradi? ( $\varphi^0 = -0.76B$  teng bo`lsa)  
 Javobi:  $0.029B$  ga o`zgaradi.
- Agar 1 n xlorid kislota eritmasi 1000 marta suyultirilsa, unga tushirilgan xingidron elektrodining potentsiali qanchaga o`zgaradi? ( $\alpha = 1$ )  
 Javobi:  $0.174B$  ga o`zgaradi.
- Kalomel (kaliy xloridning to`yingan eritmasini saqlovchi) va xingidron (eritma  $Rb^+ + e \rightarrow Rb$ ) elektrodlaridan tashkil topgan zanjirning EYUK ini aniqlang? (harorat  $25^0S$ )  
 Javobi:  $0.231B$
- Ikkita vodorod elektrodlaridan tashkil topgan galvanik element mavjud. (EYUK  $0.243B$ ) Elektrodlardan biri  $pH = 0$  bo`lgan eritmaga tushirilgan. Ikkinci elektrodning pH qiymati hisoblansin (Harorat  $18^0C$ )  
 Javob:  $pH = 4.19$
- Galvanik element xingidron va kalomel elektrodlaridan tashkil topgan. Xingidron elektrodi tushirilgan eritmadi vodorod ionlari kontsentratsiyasi noma`lum: kalomel elektrodi to`yingan kaliy xlor eritmasini saqlaydi. Element EYUK i  $18^0C$  da  $0.190B$  ga teng. Eritma pH hisoblansin?  
 Javob:  $pH = 4.55$
- Berilgan redoks sistemada oksidlangan shakli 20%, qaytarilgan shakli 80%

ga teng bo`lsin.

Oksidlanish-qaytarilish reaktsiyasida bitta elektron ishtirok etadi.  $\varphi_r^0 = -0.15B$ ;

Redoks potentsiali hisoblansin?

Javob:  $-0.115B$

7.  $(-)Pt_{(H_2)}|pH = 0 \parallel Pb^{4+}|Pb^{2+}(+)$  zanjiridan iborat galvanik element mavjud. Agar galvanik zanjirning EYUK i  $1.72B$  bo`lsa,  $25^\circ C$  da qo`rg`oshin jufti elektrodining redoks potentsiali nechaga teng bo`ladi?

Javobi:  $1.72B$

8. O`zlarining normal kontsentratsiyali eritmalariga tushirilgan AI va Pb, Mn va AI, Fe va Mn lardan tashkil topgan galvanik elementlarning EYUK qiymatlari hisoblansin?

9. Kalomel va vodorod elektroldaridan tashkil topgan galvanik zanjirning EYUK i  $18^\circ C$  da  $0.8B$  ga teng. Vodorod elektrodi tushirilgan tekshiriluvchi eritma pH topilsin?

Javobi:  $pH = 10$

10. Elektrometrik titrlash uchun to`yingan kalyx eritmasi saqlagan kalomel va tekshiriluvchi eritmaga tushirilgan vodorod elektrodi olingan. Galvanometrni strelkasini nol nuqtaga keltirish uchun surgich qaysi masofa(mm)ga qo`yilishi lozim. (Tekshiriluvchi eritma  $pH = 7.4$ ; harorat  $18^\circ C$ ; Veston elementi uchun kompensatsiya nuqta masofasi 679 mm. ga teng bo`lsa)

Javobi: 452.8 mm

11. Tajriba uchun to`yingan kalomel hamda vodorod va xingidron elektrodlari olingan. Keyingi ikkita elektrod tushirilgan xlorid kislota eritmasining  $[HCl] = 1$ , harorat  $18^\circ C$ .

Bu ikkita elektrodning qaysi, biri olinganda

1) Eng katta; 2) Eng kichik elektr yurituvchi kuch olish mumkin?

Har ikkala zanjir sxemasi tuzilsin va tok yo`nalishi ko`rsatilsin?

## Illova

### **Elektrodlar va elektrolitik ko`prik (kalit)ni tayyorlash.**

1. **Mis elektrodini tayyorlash.** Mis plastinkasi sathi qum qog`ozi bilan tozalanadi, distillangan suv bilan yuviladi va 1-2 minut 5% li  $N_2SO_4$  eritmasiga tushirib qo`yiladi. Plastinka sathi elektrolitik usulda mis bilan qoplanadi. Mislovchi vannada (idishda) ushbu tarkibli eritma bo`lishi kerak:  $CuSO_4 (200 \text{ \%})$ ,  $H_2SO_4 (50 \text{ \%})$ ,  $C_2H_5OH (50 \text{ \%})$ .

Tok 10-15 min davomida o`tkaziladi.

2. **Rux elektrodini tayyorlash.** Rux plastinkasi tajribadan oldin qum qog`ozi bilan tozalanadi, distillangan suv bilan yuviladi. Elektrolitik usulda

plastinka rux bilan qoplanadi. Elektroliz uchun olinadigan eritma tarkibi quyidagicha: 100 ml suv: 2.15 g rux sulfat: 3.0 g alyuminiy sulfat: 7.0 g natriy sulfat va 1.0 g. dekstrin (Vanna  $pH = 4$ ). Ruxlash vaqt 15 min. Tok zichligi  $10-20 \frac{mA}{cm^2}$

3. **Kalomel elektrodini tayyorlash.** (Mo`ri tagida maxsus patnisda bajariladi). Idishga tozalangan simob solinadi. So`ng simobga shisha naychaga ulangan platina plastinkasi tushiriladi. (Oldin platina plastinkasiga mis simi ulanadi, (payalnik yordamida)). Simob ustiga 1-2 mm qalinlikda  $Hg_2Cl_2$  pastasi solinadi. Buning uchun ehtiyyotlik bilan kalomel suspenziyasi yangi tayyorlangan tegishli kontsentratsiyali kaliy xlorid eritmasiga solinadi. Pasta simob ustiga cho`kkandan so`ng idishga  $KCl$  eritmasi quyiladi. Elektrod bilan juda ehtiyyotkorona ishlash kerak: silkitish, qiyshaytirish va o`lchash vaqtida «qurilma»dan chiqarib olish man etiladi. Elektrod tayyorlangandan so`ng ishlatilguncha kamida bir sutka ushlab turilishi kerak. To`yingan kaliy xlorid eritmasi saqlagan elektrod eng barqaror eng ishonchli hisoblanadi.
  4. **Simobni tozalash.** (Mo`ri tagida maxsus patnisda bajariladi). Simob yangi tayyorlangan xromli aralashma va suv bilan yuviladi va teshik-teshik qatlamlı qog`oz filtridan o'tkaziladi. Simob filtrlangandan so`ng, tarkibida 1%  $Hg_2(NO_3)_2$  saqlagan 5-10 % li  $HNO_3$  eritmasi bilan ko`p vaqt chayqatiladi. Simob yana distillangan suv bilan yuvilib, qog`oz filtr yordamida quritiladi. Simob eritmadan, "bo`luvchi" voronka yordamida ajratiladi.
  5. **Kalomel pastasi va suspenziyasini tayyorlash.** Yangi tayyorlangan tegishli kontsentratsiyali kaliy xlorid eritmasi bilan  $Hg_2Cl_2$  (kalomel) 2-3 marta dekantatsiya qilib yuviladi. Yuvilgan kalomel, chinni idishda havoncha dastasi (pestik) yordamida, bir necha tomchi simob va kaliy xlorid eritmasi bilan eziladi. Bir oz vaqtidan so`ng suv to`kib tashlanadi. Bu jarayon 3-4 marta qaytariladi. Olingan pasta kalomel elektrodi tayyorlashda ishlatiladi. Suspenziya tayyorlash uchun kalomel pastasi kaliy xlorid eritmasi bilan arlashtiriladi.
- b. **Elektrolitik ko`prik (kalitni) ni agar – agar va kaliy xloriddan tayyorlash.** 100 g qaynayotgan suvgaga 3 g agar-agar solib eritiladi. Aralashtirib turib, eritmaga 10 g kaliy xlorid qo`shiladi. Hosil bo`lgan iviq naychaga tortiladi va sovitiladi. Iviqda bo`shliq (g`ovak) va pufaklar bo`lmasligi kerak.

1 –jadval

#### Turli temperaturadagi kalomel elektrodining potentsiallari.

t, °C	KCI eritmasining kontsentratsiyasi		
	0.1 n	1.0 n	To`yingan eritma
18	0.33b9	0.2845	0.2483
19	0.33b9	0.2842	0.2477
20	0.33b8	0.2840	0.2471
21	0.33b7	0.2833	0.24b4
22	0.33b7	0.2835	0.2458
23	0.33bb	0.2833	0.2451
24	0.33bb	0.2830	0.2445
25	0.33b5	0.2828	0.2438
30	0.33b2	0.281b	0.2405
40	0.335b	0.2792	0.2340
50	0.3350	0.27b8	0.2275

2 –jadval

3 –jadval

Turli temperaturadagi $V = 2.303 \frac{RT}{nF}$ qiymati (n=1)	
T, °C	V
273Q18	0.0577
273Q19	0.0579
273Q20	0.0581
273Q21	0.0583
273Q24	0.0589
273Q25	0.0591
273Q30	0.0b04
273Q40	0.0b21
273Q45	0.0b31
273Q50	0.0b41

Veston elementi EYUK	
t, °C	E, V
18	1.01839
19	1.01834
20	1.01830
21	1.0182b
22	1.01822
23	1.01817
24	1.01812
25	1.01807
28	1.01802
29	1.01792
30	1.01781

**Ayrim sistemalarining normal (standart) oksidlanish-qaytarilish potentsiallari  
(suvli eritma, harorat  $25^{\circ}$ ).**

№	Elektrod	Elektrod jarayoni		$\varphi^0$ , v
		Oksidlangan shakl	Qaytarilgan shakl	
1	$Cr^{3+}, Cr^{2+} / Pt$	$Cr^{3+} + e \rightarrow Cr^{2+}$		- 0.41
2	$Sn^{4+}, Sn^{2+} / Pt$	$Sn^{4+} + 2e \rightarrow Sn^{2+}$		+ 0.153
3	$Cu^{2+}, Cu^+ / Pt$	$Cu^{2+} + e \rightarrow Cu^+$		+ 0.167
4	гидрохинон – хинон $H^+ / Pt$	$C_6H_4O_2 + 2H^+ + 2e \rightarrow C_6H_4(OH)_2$		+ 0.6994
5	$Fe^{3+}, Fe^{2+} / Pt$	$Fe^{3+} + e \rightarrow Fe^{2+}$		+ 0.783
6	$Mn^{3+}, Mn^{2+} / Pt$	$Mn^{3+} + e \rightarrow Mn^{2+}$		+ 1.751
7	$Pb^{4+}, Pb^{2+} / Pt$	$Pb^{4+} + 2e \rightarrow Pb^{2+}$		+ 1.70
8	$Co^{3+}, Co^{2+} / Pt$	$Co^{3+} + e \rightarrow Co^{2+}$		+ 1.82
9	$Fe(CN)_6^{3-}, Fe(CN)_6^{4-} / Pt$	$Fe(CN)_6^{3-} + e \rightarrow Fe(CN)_6^{4-}$		+0.486
10	$Li^+ / Li$	$Li^+ + e \rightarrow Li$		-3.045
11	$Rb^+ / Rb$	$Rb^+ + e \rightarrow Rb$		-2.925
12	$K^+ / K$	$K^+ + e \rightarrow K$		-2.925
13	$Ba^{2+} / Ba$	$Ba^{2+} + 2e \rightarrow Ba$		-2.90
14	$Ca^{2+} / Ca$	$Ca^{2+} + 2e \rightarrow Ca$		-2.87
15	$Na^+ / Na$	$Na^+ + e \rightarrow Na$		-2.714
16	$Mg^{2+} / Mg$	$Mg^{2+} + 2e \rightarrow Mg$		-2.37
17	$AlO^{-}_2 / Al$	$AlO^{-}_2 + 2H_2O + 3e \rightarrow Al + 4OH^-$		-2.35
18	$Al^{3+} / Al$	$Al^{3+} + 3e \rightarrow Al$		-1.70
19	$ZnO^{2-}_2 / Zn$	$ZnO^{2-}_2 + 2H_2O + 2e \rightarrow Zn + 4OH^-$		-1.216
20	$Mn^{2+} / Mn$	$Mn^{2+} + 2e \rightarrow Mn$		-1.18
21	$SO^{2-}_4 / SO^{2-}_3$	$SO^{2-}_4 + H_2O + 2e \rightarrow SO^{2-}_3 + 2OH^-$		-0.93
22	$Zn^{2+} / Zn$	$Zn^{2+} + 2e \rightarrow Zn$		-0.763
23	$Cr^{3+} / Cr$	$Cr^{3+} + 3e \rightarrow Cr$		-0.74
24	$Fe(OH)_3 / Fe(OH)_2$	$Fe(OH)_3 + e \rightarrow Fe(OH)_2 + OH^-$		-0.56
25	$Fe^{2+} / Fe$	$Fe^{2+} + 2e \rightarrow Fe$		-0.440

26	$2H^+ / H_2(pH = 7)$	$2H^+ + 2e \rightarrow H_2$	-0.414
27	$Cr^{3+} / Cr^{2+}$	$Cr^{3+} + e \rightarrow Cr^{2+}$	-0.41
28	$PbSO_4 / Pb$	$PbSO_4 + 2e \rightarrow Pb + SO^{2-}$	-0.0356
29	$Cd^{2+} / Cd$	$Cd^{2+} + 2e \rightarrow Cd$	-0.403
30	$Ni^{2+} / Ni$	$Ni^{2+} + 2e \rightarrow Ni$	-0.250
31	$Sn^{2+} / Sn$	$Sn^{2+} + 2e \rightarrow Sn$	-0.136
32	$CrO^{2-}_4 / Cr(OH)_3$	$CrO^{2-}_4 + 4H_2O + 3e \rightarrow Cr(OH)_3 + 5OH^-$	-0.13
33	$Pb^{2+} / Pb$	$Pb^{2+} + 2e \rightarrow Pb$	-0.126
34	$2H^+ / H_2(pH = 0)$	$2H^+ + 2e \rightarrow H_2$	0.000
35	$S / H_2S$	$S + 2H^+ + 2e \rightarrow H_2S$	+0.141
36	$Sn^{4+} / Sn^{2+}$	$Sn^{4+} + 2e \rightarrow Sn^{2+}$	+0.15
37	$Cu^{2+} / Cu^+$	$Cu^{2+} + 2e \rightarrow Cu^+$	+0.153
38	$SO^{2-}_4 / SO^{2-}_3$	$SO^{2-}_4 + 4H^+ + 2e \rightarrow SO^{2-}_3 + H_2O$	+0.17
39	$AgCl / Ag$	$AgCl + e \rightarrow Ag$	+0.222
40	$SO_4^{2-} / S_2O_3^{2-}$	$SO_4^{2-} + 10H^+ + 8e \rightarrow S_2O_3^{2-} + 5H_2O$	+0.29
41	$Cu^{2+} / Cu$	$Cu^{2+} + 2e \rightarrow Cu$	+0.34
42	$Fe(CN)_6^{3-} / Fe(CN)_6^{4-}$	$Fe(CN)_6^{3-} + e \rightarrow Fe(CN)_6^{4-}$	+0.36
43	$SO_4^{2-} / S$	$SO_4^{2-} + 8H^+ + 6e \rightarrow S + 4H^2O$	+0.36
44	$O_2 / OH^- (pH = 14)$	$O_2 + 2H_2O + 4e \rightarrow 4OH^-$	+0.401
45	$H_2SO_3 / S$	$H_2SO_3 + 4H^+ + 4e \rightarrow S + 3H_2O$	+0.45
46	$J_2 / 2J^-$	$J_2 + 2e \rightarrow 2J^-$	+0.5355
47	$J_3 / 3J^-$	$J_3 + 3e \rightarrow 3J^-$	+0.536
48	$MnO_4^- / MnO_4^{2-}$	$MnO_4^- + e \rightarrow MnO_4^{2-}$	+0.564
49	$MnO_4^- / MnO_2$	$MnO_4^- + 2H_2O + 3e \rightarrow MnO_2 + 4OH^-$	+0.588
50	$MnO_4^{2-} / MnO_2$	$MnO_4^{2-} + 2H_2O + 2e \rightarrow MnO_2 + 4OH^-$	+0.60
51	$O_2 / H_2O_2$	$O_2 + 2H^+ + 2e \rightarrow H_2O_2$	+0.682
52	$C_6H_4O_2 / C_6H_4(OH)_2$	$C_6H_4O_2 + 2H^+ + 2e \rightarrow C_6H_4(OH)_2$	+0.6990
53	$Fe^{3+} / Fe^{2+}$	$Fe^{3+} + e \rightarrow Fe^{2+}$	+0.771
54	$NO^-_3 / NO_2$	$NO^-_3 + 2H^+ + 1e \rightarrow NO_2 + H_2O$	+0.79
55	$Ag^+ / Ag$	$Ag^+ + e \rightarrow Ag$	+0.799
56	$O_2 / H_2O(pH = 7)$	$O_2 + 4H_2 + 4e \rightarrow 2H_2O$	+0.815

57	$Hg^{2+} / Hg$	$Hg^{2+} + 2e \xrightarrow{\leftarrow} Hg$	+0.854
58	$ClO^- / Cl^-$	$ClO^- + 2H_2O + 2e \xrightarrow{\leftarrow} Cl^- + +2OH^-$	+0.89
59	$Hg^{2+} / Hg^{2+}_2$	$Hg^{2+} + 2e \xrightarrow{\leftarrow} Hg^{2+}_2$	+0.92
60	$NO^-_3 / HNO_2$	$NO^-_3 + 3H^+ + 2e \xrightarrow{\leftarrow} HNO_2 + H_2O$	+0.94
61	$NO^-_3 / NO$	$NO^-_3 + 4H^+ + 3e \xrightarrow{\leftarrow} HNO_2 + H_2O$	+0.96
62	$HNO_2 / NO$	$HNO_2 + H^+ + e \xrightarrow{\leftarrow} NO + H_2O$	+1.00
63	$Br_2 / 2Br^-$	$Br_2 + 2e \xrightarrow{\leftarrow} 2Br^-$	+1.0652
64	$IO^-_3 / I^-$	$IO^-_3 + 6H^+ + 6e \xrightarrow{\leftarrow} I^- + 3H_2O$	+1.09
65	$2IO^-_3 / I_2$	$2IO^-_3 + 12H^+ + 10e \xrightarrow{\leftarrow} I_2 + 6H_2O$	+1.195
66	$O_2 / H_2O(pH=0)$	$O_2 + 4H^+ + 4e \xrightarrow{\leftarrow} 2H_2O$	+1.229
67	$MnO_2 / Mn^{2+}$	$MnO_2 + 4H^+ + 2e \xrightarrow{\leftarrow} Mn^{2+} + 2H_2O$	+1.23
68	$Cr_2O^{2-}_7 / 2Cr^{3+}$	$Cr_2O^{2-}_7 + 14H^+ + 6e \xrightarrow{\leftarrow} 2Cr^{3+} + 7H_2O$	+1.33
69	$Cl_2 / 2Cl^-$	$Cl_2 + 2e \xrightarrow{\leftarrow} 2Cl^-$	+1.359
70	$ClO^-_3 / Cl^-$	$ClO^-_3 + 6H^+ + 6e \xrightarrow{\leftarrow} Cl^- + 3H_2O$	+1.45
71	$PbO_2 / Pb^{2+}$	$PbO_2 + 4H^+ + 2e \xrightarrow{\leftarrow} Pb^{2+} + 2H_2O$	+1.456
72	$2ClO^-_3 / Cl_2$	$2ClO^-_3 + 12H^+ + 10e \xrightarrow{\leftarrow} Cl_2 + 6H_2O$	+1.47
73	$Au^{3+} / Au$	$Au^{3+} + 3e \xrightarrow{\leftarrow} Au$	+1.50
74	$MnO^-_4 / Mn^{2+}$	$MnO^-_4 + 8H^+ + 5e \xrightarrow{\leftarrow} Mn^{2+} + 4H_2O$	+1.51
75	$PbO_2 / PbSO_4$	$PbO_2 + 4H^+ + SO_4^{2-} + 2e \xrightarrow{\leftarrow} PbSO_4 + 2H_2O$	+1.685
76	$MnO^{2-}_4 / MnO_2$	$MnO^{2-}_4 + 4H^+ + 3e \xrightarrow{\leftarrow} MnO_2 + 2H_2O$	+1.695
77	$H_2O_2 / H_2O$	$H_2O_2 + H^+ + 2e \xrightarrow{\leftarrow} H_2O$	+1.77
78	$S_2O^{2-}_8 / 2SO^{2-}_4$	$S_2O^{2-}_8 + 2e \xrightarrow{\leftarrow} 2SO^{2-}_4$	+2.01
79	$F_2 / 2F^-$	$F_2 + 2e \xrightarrow{\leftarrow} 2F^-$	+2.87
80	$F_2 / 2HF$	$F_2 + H^+ + 2e \xrightarrow{\leftarrow} 2HF$	+3.06

### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., b-son, 70-modda
2. Aminov S.N., Popkov V.A., Qurbonova M.M., Fizik va colloid kimyodan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent, Fan, 200 b.
3. Физическая и коллоидная химия: учебник /Под ред. Проф. А.П. Беляева.- М. ГЭОТАР –Медия, 2010. -704 с.
4. Aminov S.N., Qurbonova M.M., Raxmatullaeva M.M., Fizik va kolloid kimyo fanidan masalalar to'plami.T., "Spektrum skope" 2011.-194 b.
- 5.D. H. Everett, F.R.S. Colloid science. Department of Physical Chemistry University of Bristol.ISBN 0-8518b-443-0 © The Royal Society of Chemistry b. P. Atkins, J.Paula. Physical chemistry. New York, 2010.
7. Aminov S.N., Raxmatullaeva M.M. Fizik va kolloid kimyo –Ma'ruzalar matni multimediyasi. Toshkent, -2017 g.
1. Фролов Ю.Г., Курс коллоидной химии, Учебник -М:, Химия, -1992.
2. Ершов Ю.А., Попков В.А., Берлянд А.С. и др. Общая химия, М:, Высшая школа2003 г.
8. Кабачный В.И. Осипенко Л.К.,и др. Физическая и коллоидная химия Харьков.Изд. НФаУ.-2010.-С.365